**SHOKIROVA MADINABONU SHOMUROD QIZI**

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari bakalavrlari uchun

## O‘QUV QO‘LLANMA

**BUXORO – 2024**

**“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti**

**UO'K 811.411**
**SH 85**
**Shokirova Madinabonu Shomurod qizi**

**“Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani”** [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Shokirova Madinabonu Shomurod qizi.-Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2024-172 b.

**KBK 81.2**

**Taqrizchilar:** **M.M. Yuldasheva** - dotsent, (PhD)
**G.R. Akramova** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

***O‘quv qo‘llanma, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-sentayabrdagi 438 – sonli buyrug`iga asosan nashr qilishga tavsiya qilingan. Ro‘yxatga olishga raqami № 438474***

**ISBN 978-9943-9667-2-7**

## Annotatsiya

*"Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" o'quv qo'llanmasida tarbiya ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida, milliy tarbiya konsepsiyasi, tarbiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi, milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi, tarbiya darslarida o'quvchining o'z ustida ishlash imkoniyatini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda ilg'or мilliy tajribalar kabi dolzarb mavzularga to'xtalib o'tilgan.*

*Ushbu o'quv qo'llanmada taqdim qilinayotgan o'quv materiallari oliy ta'lim tizimida bakalavrlarga qo'yilayotgan hamda ular tomonidan bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalarga ega bo'lishi uchun ko'zda tutilgan davlat talablari asosida yoritilgan.*

*Ushbu o'quv qo'llanma 60110500 - Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, doktorantlari, magistrantlari va bakalavriat talabalari uchun nafaqat kunduzgi balki sirtqi bo'limlar uchun, umumta'lim maktablari boshlang'ich sinfda "Tarbiya" fani o'qituvchilari, o'quvchilarning ota-onalari, shuningdek o'z malakalarini oshiradigan o'qituvchilarga va barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.*

## Аннотация

*В учебном пособии «Предмет воспитание в начальном образовании» обсуждаются актуальные такие темы: воспитание как общественно-историческая необходимость, национальная концепция воспитания, метод организации внеурочной деятельности на занятиях, национальные обычаи, ценности и традиции - основа воспитания, затронуты такие актуальные темы, как интеграция семьи, махалли и образовательного учреждения в образовательно-воспитательном процессе, традиционный национальный опыт повышения эффективности воспитательного и образовательного процесса.*

*Учебные материалы, представленные в данном учебном пособии, охватываются государственными требованиями, предъявляемыми к бакалаврам в системе высшего образования, и предусматривают получение ими знаний, навыков, квалификации и компетенций.*

*Настоящее учебное пособие предназначено для преподавателей, докторантов, магистров и студентов высших учебных заведений, обучающихся в сфере начального образования очного и заочного отделения 60110500 –направления "Начальное образование", для учителей начальных классов в общеобразовательных школах.*

## Annotation

*Education as a socio-historical necessity, national concept of education, method of organizing extracurricular activities in education classes, national customs, values and traditions - the basis of education, current topics such as organization of student's opportunity to work on himself in education classes, integration of family, neighborhood and educational institution in the educational process, advanced foreign experiences in increasing the effectiveness of the educational process were touched upon.*

*The educational materials presented in the textbook "Breeding in Primary Education" are given to the bachelors in the higher education system and they are trained to acquire knowledge, skills and competences. It is covered based on the state requirements.*

*This study guide is intended not only for full-time, but also part-time departments for teachers, doctoral students, master's students and undergraduate students of higher educational institutions studying in the field of elementary education 60110500, outer students , primary education teachers, parents of students, as well as in-service teachers and anyone interested.*

## Kirish

"Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz".

Sh.M. Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi[1] da belgilangan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan ta'lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta'minlash[2] kabi ustuvor vazifalari ta'lim muassasalarida o'qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga muhtaram Prezidentimiz katta e'tibor qaratmoqdalar. Bunday sharoitdan unumli foydalangan holda, hozirgi kunda o'quvchilarimizda ham ta'lim va tarbiyaga intiluvchanlik kuchli. Kelajak avlodni har tomonlama, yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash, juda zarur. Shunday ekan, biz pedagoglar o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs etib tarbiyalashimiz zarur. Zero, ular bizning kelajagimiz, yurtimizning, vatanimizning egalaridir. Boshlang'ich ta'limdan o'quvchi to'g'ri tarbiya, mustahkam saboq olsagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Albatta, o'quvchilar ta'lim va tarbiyani , birgalikda olib borishlari zarur. Negaki, ta'limni va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analarni ongli ravishda yosh avlodga o'rgatib,tarixini anglashi kelajakda mustaqil yurt farzandi bo'lishni qadrlashi uchun zamin yaratadi.Milliy qadriyatlarimiz o'quvchi, talaba-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.
[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y

yoshlar dunyoqarashi shakllanishi, insonparvarlik, mehr-oqibatlilik, halollik fazilatlari paydo bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatishini hisobga olgan holda o‘quvchilarni, talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz axloqli, vijdonli va mehr-shafqatli qilib voyaga yetishishlariga erishishimiz, maqsad qo‘ya olish va unga intilishga undashimiz, xalqning ko‘p asrlik qadriyatlariga rioya qilib kamol toptirishimiz, milliy g‘urur va iftixor, e’tiqod hislarini ularda shakllantirishimiz, moddiy va ma’naviy merosga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirishimiz bugungi kun o‘qituvchilarining ayniqsa “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining eng oliy vazifasi deb anglamog‘imiz darkor.

Tarbiya darslarini tashkil etish metodikasi fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitish orqali yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, yangilanayotgan O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni yuksak axloq va madaniyatni o‘zida mujassam etgan raqobatbardosh shaxs etib tarbiyalash lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o‘qituvchilarga katta mas’uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o‘qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog‘i shart. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimidan andoza olgan holda har bir darslarimizni yangi uslubda qiziqarli tashkil etish samarali natija beradi.

# I BOB. TARBIYA IJTIMOIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA.

**Reja:**

1.1. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fani haqida tushuncha.

1.2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish.

1.3. Tarbiyaviy  ishlarning metodologik asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.



**O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati**

**Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**


1. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.

2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent. O‘qituvchi nashryoti. 2021-yil.209-bet.

3. Istamova N. va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.203-bet.

4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.17-bet.

5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil. 23-bet.

6. B.X.Xodjayev.  Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil **.** 9-bet

7. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, Maxsus son 103-bet Maxbuba Karimova.

**Elektron ta’lim resurslari:**

1.w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3. https://tarbiyaviy.uz/asos/mavzular/m3/m3.htm

4.tdpu-INTRANET.Ped

5.https://hikmatlar.uz/quote/

6.https://sultonov.wordpress.com/2019/12/25/metod-va-metodika/

Hozirgi vaqtda yurtimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni yosh-barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni hozirgi XXI asr talablariga to‘liq javob bera oladigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish, ulg‘aytirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu jabhadagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan. Birgina Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi va unga kiritilgan o‘zgarishlar yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni bajarishga qodir komil insonni tarbiyalashga yo‘naltirilganligini keltirish , darhaqiqat , yetarlidir.

Tarbiya – nafaqat yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat , balki shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan , insonning jamiyatda hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan ma’naviy qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uni yuksaltirish , uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha

ta’sirlar, harakatlar, tadbirlar, intilishlar majmuini bildiradi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlari, mahallada olib boriladigan jarayonlar bo‘libgina qolmay, uning yetakchi g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, televideniya, internet tarmoqlari orqali singdirilgan mafkurani ham o‘z ichiga mujassamlashtiradi. Zero, tarbiya ta’limga nisbatan kengroq bo‘lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Sharq mamlakatlarida ta’lim va tarbiyani bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’limni tarbiyadan yo aksincha tarbiyani ta’limdan ustun qo‘ya olmaymiz. Tarbiya bo‘lmagan joyda ta’lim yaxshi natijalarga erisha olmasligi aniq. Shu jihatdan tarbiya ta’lim olish bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ta’lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma’naviy – axloqiy sifatlar tarkib topadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Albatta, ta’lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi..... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim”.

“Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri — o‘quvchiga hurmatda”,- R.Emerson. Bundan ko‘rinib turibdiki biz tarbiya beruvchi o‘quvchilarni, avvalo, shaxs hisoblab ularni hurmat qilganimizdagina,aynan o‘zimiz shu hurmatni ko‘rsata olganimizdagina tarbiya borasida yuksak muvaffaqiyatlarga erisha olamiz. O‘qituvchilarning eng oliy vazifasi ta’lim bermoq ekan, buni amalga oshirishda eng foydali vosita bu yuksak tarbiyadir. Tarbiya beradigan insonning o‘zida go‘zal xulq shakllangan bo‘lsa u hech bir qiyinchiliksiz o‘z

o‘quvchilari,tarbiyalanuvchilari, bolalarini tarbiyalay oladi,chunki unda go‘zal na’muna o‘z xulqi mavjud. Tarbiya juda yosh davrlardan boshlanadi, oilasidan so‘ng bolalarda tarbiya beradigan maskan bu ta’lim muassasalari hisoblanadi. Tarbiya umumta’lim maktablarida alohida fan sifatida o‘tilishi bejizga emas. Tarbiyani qancha vaqtli boshlasak kutgan natijalarga erishishimiz shunchalik oson bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda, ayni bolaning shaxs bo‘lib rivojlana boshlagan davrlaridanoq go‘zal xulq-axloq bilan ularni qurollantirishimiz kelgusida go‘zal ma’naviyatli, mehr-oqibatli yurt farzandlarini ko‘rib kelajagimiz buyukligiga shu qadar ishona olamiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma’naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma’naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

| Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: |
| --- |
| - maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;<br>- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;<br>- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota–ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir. |

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi:

| |
| --- |
| - tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir; |

| |
|---|
| - tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish; |
| - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo‘lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir. |
| -o‘quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘quvchi yoshlarning faolligi ko‘p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog‘liq; |
| - Tarbiyaviy ishlar ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo‘lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g‘oyani singdirishda har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. |

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ilm olishi, o‘z qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi. Ta’lim to‘g‘risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi.

Ma’lumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O‘qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning

uchun 1-sinfdan maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o‘quv jarayoni bilan bog‘langandir.

| **Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar** |
|---|
| Ta’lim ustuvorligining tan olinishi;<br>ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;<br>ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;<br>ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;<br>ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;<br>ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;<br>ta’limning uzluksizligi va izchilligi;<br>o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;<br>davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;<br>o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;<br>insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;<br>jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;<br>ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;<br>bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;<br>ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;<br>ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.<br>Har bir fanning predmeti, o‘rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo‘lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o‘rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalari bor. |

**Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi:** bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunining bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan.

Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolotining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Albatta, bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. O'zbekiston mustaqilligi tufayli shaxsni tarbiyalashga, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning mazmunida yoshlar tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti tomonidan 2008 yilni ―Yoshlar yili va 2010 yilni ―Barkamol avlod yili 2012 yilni ―Mustahkam oila yili deb e'lon qilinishi va ushbu yillar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya barkamol avlodning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar

dunyoqarashida millat, ona tuproq, ona Vatan kabi turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma’naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g‘urur, milliy tarbiya, milliy g‘oya, Vatan tuyg‘usi, Vatan qayg‘usi, Vatan sog‘inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

“Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: Iste’dodga, ilmga va mashqqa”,- degan edi, ulug‘ olim Arastu. Shunga asosan tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- Tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg‘ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o‘smir va yoshlarning o‘ziga xosligini hurmat qilish;

- Milliylikning o‘ziga xos an’ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

- O‘quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to‘laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga qatnashishini ta’minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma’naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an’analarga tayanib, ongli shaxslarni intelektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

**Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:**

- O‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lish ;

- Tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo‘lgan metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilish;

- Ilg‘or tajribalarni tahlil qilish va uni o‘z faoliyatida ijodiy foydalanish ;

- Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;

- Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim. Darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga MO‘D lariga mosligiga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba’zi bir talablarga ta’sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e’tiborni qaratish zarur bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir fan o‘zining predmeti va metodologik asoslariga ega bo‘lganidek, tarbiya ham o‘zining kategoriyalari, o‘rganish ob'ekti va predmeti, metodikalar va metodologiyasiga ega.

Kategoriya- (yunoncha: kategoria- «ko‘rsatma», «dalil», «tushuncha») pedagogikada ta'lim va tarbiyaga oid jarayonlar xususiyatlarini, mohiyatmazmunini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o‘rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, iqtisodiy-ekologik va boshqa munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoriya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo‘ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni va tevarak atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni o‘rganadi.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi, uni taraqqiy ettiruvchi eng muhim, asosiy tushunchalar kategoriyalar deb ataladi.

**Metod** (yun. **"metodos"** — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o‘z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo‘lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta’limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to‘plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqlar, metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi.

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo‘llanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi o‘zbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro so‘z bo‘lgan METODIKA atamasi qo‘llangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika so‘zidan foydalanamiz.

Metodika tushunchasini o‘rganishdan avval uning negizini tahlil qilib ko‘rsak. Metod o‘zi nima?

Metod bu biror maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan yo‘l, usuldir.

Aslida, kundalik hayotimizda har sohada, har soniyada undan foydalanamiz.

*Misol uchun, har kuni ertalab ishga borishimiz kerak. Ishga borish bizning bosh maqsadimiz. Yo'lga chiqishdan avval ishga QANDAY qilib yetib olishimiz haqida o'ylaymiz. Avtobusda boramizmi yoki taksi olamizmi, balki piyoda borgannimiz ma'quldir. Demak birgina maqsadimizga uchta usulni qo'llashimiz mumkin bo'ladi.*

Asosiy maqsadning kichik qismlari ham borki, yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkin. Ishga tezroq borishimiz zarurmi, yo'l haqi qimmatga tushmasligi kerakmi yoki bosib o'tilajak yo'l salomatligimiz uchun foydali bo'lsinmi?

Demak, maqsadga ko'ra eng kerakli va to'g'ri usulni tanlashimiz lozim bo'ladi.

Metodika keng doirada mana shu dars jarayonlarida qo'llaniladigan sanoqsiz metodlar jamlanmasi sifatida tushuniladi. Tor doirada esa chet tili darsiga oid barcha metodlar majmuini ilmiy nazardan o'rganadigan, rivojlantiradigan fan sifatida tushunish lozim. Chet tillarni o'qitish va o'rganishda metodika fan sifatida ham o'quv darsturlariga kiritilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkin-ki, metodika bu dars jarayonidagi turli maqsadlarga eltuvchi yo'llar, uslublar bo'lib, uning o'qituvchi oldiga qo'yadigan savoli o'quvchi o'rganayotgan materialni QANDAY usulda muvaffaqiyatli o'zlashtira olishi va rivojlantirishi demakdir.

Demak , metod (yunoncha - usul) keng manoda yo'l ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi manolarni anglatadi. Metodologiya esa metod to'g'risidagi talimot bo'lib, u nazariy bilimlar va amaliy faoliyat tamoyillarini, usullarini o'rgatadi. U malum tizim to'g'risidagi talimotdir.

**Tarbiya metodlari haqida tushuncha.**

Tarbiya metodlari tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, bola shaxsining har tamonlama kamol topishi bilan belgilanadi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga taalluqli bo'lgan ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tamonidan ta'lim

muassalari oldiga Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va vazifalari o‘quvchilarni yuksak darajada tarbiyalash san’atining qirralari, shakllari va yo‘llari hamda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish haqida baxs yuritadi; ta’lim muassasalarida tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etish. O‘quvchilarni ma’naviy, axloqiy jihatdan intellektual salohiyatli etib tarbiyalash o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lish, tarbiya ishlarida zarur bo‘lgan metodlarni qo‘llay bilish,tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini rivojlantirib borish, har tamonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari o‘qituvchi va jamoa tamonidan tarbiyalanuvchilarning g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarini, ma’naviy his tuyg‘u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo‘llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini anglatadi. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta’sir qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to‘ldiradi, nimaga yo‘naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

***Tarbiya metodi*** - tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq

shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda ***tarbiya vositalari*** tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

## Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

| |
|---|
| ***1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.*** Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur. |
| ***2. Tarbiya mazmuni.*** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun |

| |
|---|
| bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir. |
| ***3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.*** U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi. |
| ***4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.*** O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti. |
| ***5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari.*** Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni indivudual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi. |
| ***6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.*** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir.Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi. |

| |
|---|
| ***7. Tarbiya vositalari.*** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari. |
| ***8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.*** Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo‘ladi. |
| ***9. Tarbiya vaqti.*** Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq. |
| ***10. Kutiladigan natija.*** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak. |

## Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Uzluksiz tarbiya konsepsiyasi

Tarbiya, eng avvalo, insonning o‘ziga qaratilganligi mamlakatimizda ishlab chiqilgan, butun dunyo hamjamiyati tan olgan qadam-baqadam amalga oshirilayotgan ,,O‘zbek modeli“da juda to‘g‘ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonning diqqat-e’tibori o‘zlikni anglashga qaratildi. O‘zligini anglash, birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug‘ siymoligini anglash va o‘zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘ziga xos milliy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan

iboratdir. Yuqorida sanab o‘tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Chunki komil inson sifatlarini, tarbiya sohasidagi ilmlarini xulosalab, mujassamlashtirsa ular, asosan, 3 ta:

| Komil inson sifatlari | | |
|---|---|---|
| Ezgu niyat, fikr | Ezgu so‘z, xushmuomala | Ezgu ish, ezgu faoliyat |

Shu uchta sifat o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Bu bosh maqsad insonlarda, ayniqsa, yoshlarda komillik sifatlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim hosil qilishdan iborat bo‘lgan zamonaviy pedagogika fani asoslarining kengayganligini ko‘rsatadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari va ularning mazmuni, vositalari bilan qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun, uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Ta’lim sohasida o‘qitishning vazifasi yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan har bir kishining aqliy-axloqiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta’minlash, o‘zi xohlagan kasbini tanlash. o‘zi xohlagan shu sohada faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy-ma’naviy tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Tarbiya ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyos. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undasn va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyati tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma’anaviv manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharafli mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Buning uchun bolalarriing yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilaming bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval katlalarga taqlid qiladilar. So‘ng asta-sekin qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi tarbiyaianganligi ham muhim ahamiyatga ega. Olada bollalarni to‘g‘ri tarbiyalash ota-ona va barcha Yoshi kata oila a’zolari zimmasidadir.

2019 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiya»ni tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 1059-son qarori qabul qilindi. Konsepsiyaning maqsadi - yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiya quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

| | |
|---|---|
| **1** | Birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr); |
| **2** | ikkinchi bosqich — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr; |
| **3** | uchinchi bosqich — umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar); |
| **4** | to‘rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh). |



# “Katta aylana” texnologiyasi



Ish uch bosqichda amalga oshiriladi.

**Birinchi bosqich.** Guruh o‘quvchilari o‘rindiqlarga katta doira bo‘yicha o‘tirib joylashadi. O‘qituvchi muammoni ifodalab beradi.

**Ikkinchi bosqich.** Belgilangan vaqt mobaynida (masalan, 15daqiqa) har bir o‘quvchi individual ravishda, o‘zining qog‘oziga qo‘yilgan muammoni yechish yo‘llarini yozib oladi.

**Uchinchi bosqich.** Aylana bo‘yicha har bir o‘quvchi o‘zining takliflarini bayon qiladi. Guruhning qolgan a'zolari uning fikrini izohlamay, tanqid qilmay, jim eshitishadi va har bir band bo‘yicha taklifni umumiy qarorga kiritish yoki kiritmaslik haqida ovoz berishadi. Umumiy qarorga kiritilgan takliflar doskaga yozib boriladi.




## Nazorat uchun savol-va topshiriqlar.

1.Qanday tarbiya metodlarini o‘rgandingiz?

2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari nimadan iborat?

3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlarini sanang.

4. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari haqida fikr yuriting.

5. Metod qanday ma’noni anglatadi?

6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi nimadan iborat?

7.Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplarni izohlab bering.

8. Tarbiyaviy  ishlarning metodologik asoslari deganda nimalarni bilib oldingiz?

9. Tarbiyaviy ishlarning asosini nima belgilaydi?

10. O‘qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o‘quv jarayoni bilan qachondan bog‘lanadi?

# II BOB. MILLIY TARBIYA KONSEPSIYASI.

## Reja:

2.1. Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati.

2.2. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi.

2.3.Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

**Tayanch tushunchalar:** urf-odat, rasm-rusum, an'ana, meros, qadriyat, islom ma'naviyati, xalq og'zaki ijodi janrlari, folklor.



**O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati**

**Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**


1.R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 88-bet.

2.R.A. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2010 y.332-bet.

3.K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T:.O'qituvchi 2010-yil.127-bet.

4.R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.13-bet.

**Elektron ta'lim resurslari:**

**1.**w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

## Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar hal etadi. Yurtimizning kelajagi mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga, kadrlar tayyorlashga bevosita boliq. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analarimizning saqlanishi madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bogliqdir”[3]. Ilm-fan, madaniyat, ma’rifat va milliy tarbiya har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko‘taradi, uning taraqqiyotini ta’minlaydi, kelajagini oldindan ko‘rsatib beradi.

Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Sobiq sho‘rolar davrida ijtimoiy ongda «zamonaviylik - milliylik» tushunchalari orasida «sivilizatsiya - ekzotika» shaklidagi sun’iy antiteza hosil qilindi. Natijada milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon - milliy tarbiyaning tobora zaiflashuvi yuzaga keldi. Mafkuraviy maqsadlar ostida rang-barang milliy qadriyatlarni o‘zaro aloqada yuksaltirish emas, balki bir xillashtirish harakati rag‘batlantirildi. Antropologlarning shahodat berishlaricha, odamning tashqi ko‘rinishi kechki paleolit - kromanyonlar davridan buyon

3.I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”. Toshkent 2000 y.

o‘zgarmasdan kelmoqda. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyutsiyasi tugallanganligini bildiradi. Odamdagi evolyutsion rivojlanishning yakunlanishi esa undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Odamda oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo‘lgan emotsional-instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo‘lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go‘daklikdan boshlab kamolatga erishuv tomonga o‘zgartira boradi.

Inson o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o‘zlashtiruvchi, zamonaviylashtiruvchi, boyituvchi va o‘zgartiruvchidir. Ana shu insoniy burchlarning har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Shu nuqtai nazardan, har bir inson o‘zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiya mahsulidir. Turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlari alohida qiziqish uyg‘otgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayhon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, Herman Vamberi va boshqalar) qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta’limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o‘rganish yo‘nalishi mavjud edi.

XIX asrga kelib g‘arb ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq, qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya yo‘nalishlari maxsus fanlarga aylandi. Bu fanlar «boshqa dunyo kishisi» muammosini o‘rgana boshladi. Aslida esa bu – boshqacha tarbiya – milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyliklarni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish davri boshlanganligini anglatar edi. XIX asr uchun «boshqa dunyo kishisi»ni o‘rganish taraqqiyparvar yangilik edi. Zero, kulturantropologiya «Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?», «U o‘zini o‘rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?»,

«U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?», «U o‘z xatti-harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo‘l tutadi?» kabi savollarga javob izlar edi. Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari ushbu muammoga qiziqish ham orta bordi. Ayniqsa, Yevropada kapitalistik jamiyatning shakllana borishi va shu bilan bog‘liq, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ayniqsa, mustamlakachilik davri u yohud bu xalqlarning milliy xususiyatlarini o‘rganishga kuchli turtki berdi. Chunki, mustamlakachi, missioner, plantatorlar o‘z mustamlakalari – mahalliy xalqlar haqida hech bo‘lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo‘lishlari o‘zlari uchun foydali edi. Qolaversa, bu masala mustamlakachilikning kelajagi – mahalliy xalqlarni «madaniy-oqartuv» orqali inglizlashtirish, fransuzlashtirish, ya’ni madaniy-ma’naviy mustamlakalarga aylantirishning samaradorligini ta’minlash uchun ham kerak edi.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri – kulturantropolog M. Mid bo‘ldi.

Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (bir xalqning boshqa xalqlar haqidagi bilimlari yig‘indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip (o‘z xalqi haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning shakllanishiga, boshqacha qilib aytganda, o‘zligini anglashga ham turtki bo‘ldi. Biz uchun ushbu tadqiqotning pedagogik jihati muhimdir. Zero, M. Mid tomonidan 1927-yili nashr ettirilgan «Samoda ulg‘ayish» kitobi tarbiyaning milliyligiga asoslangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasidir. Shuningdek, Al-Xusriy arab tilining ilmiy atamalarini yaratishga chaqirib, «milliy tarbiya» tushunchasini ilk bor ilmiy-pedagogik muomalaga kiritdi. Shu tariqa milliy tarbiya, bir tomondan, mulkdor boylar orasida mavjud «o‘z manfaatlarini millat manfaatidan yuqori qo‘yish va ochko‘zlikka, ikkinchi tomondan, mutaassib ruhoniylarning «taraqqiyotga eltuvchi ilg‘or g‘oyalarga dushmanligi»ga qarshi kurashda samarali qurol bo‘lib xizmat qildi.

Milliy tarbiyaning manbai – milliylik! «Millat», «milliylik», «milliy g‘urur», «milliy odob», «millatlararo muloqot madaniyati» tushunchalarining o‘zagini arabcha «mil» so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada «o‘zak», «tub mohiyat»,

«negiz» ma’nolarini anglatadi. «Millat» so‘zi esa bir necha ma’noni: 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq ma’nolarini anglatadi.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zaklarga borib tutashadi. Ya’ni Yevropa xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib singdi.

«Tarbiya» so‘zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondashgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish; ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» esa shu ko‘p qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi odam, demakdir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini «yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin. Bu o‘rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto” g‘ururi ahamiyatga ega. Unda insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning so‘zi, fikri, ishi birligiga g‘ururi e’tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma’rifiy asarlarga asos bo‘lgan, desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Mana shunga asosan, “Avesto”ning eng asosiy manbasi bo‘lgan Zardushtiylik to‘g‘risida so‘z borganda u to‘g‘rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, “Avesto”da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o‘rniga munosabati to‘liq yoritilgan. Zardusht ta’limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan. “Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o‘qishni va so‘ngra esa yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl — sog‘lom avlod qoladi” – deb ta’kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi

bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o‘zgarishi bilan tarbiya ham o‘zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig‘indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya — o‘sib kelayotgan avlodda hosl qilingan bilimlar asosida aqliy-axloqiy dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va masuliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya deb tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug‘ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya — biror maqsadga qaratilgan jarayon, doimo muayyan rejaga ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolati mavjud bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo‘nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O‘z aqliga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan muayyan maqsadlarni qo‘ygan davlatlar ham ta’lim-tarbiya ishlariga befarq qaramagan. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining ko‘rinishiga, g‘ururi hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo‘lgan allomalarimizdan Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqalarning ta’lim-tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Bahouddin Naqshbandning ta’lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab, shunday degan edi: “Adab xulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir… Adab saqlash — muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining g‘ururi hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin”.

Abu Nasr Farobiy birinchi bo‘lib ta’lim va tarbiyaga ta’rif bergan olimdir. “Ta’lim so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyot, ish-tajriba bilan, ya’ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi“, deydi u.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo‘lishi uchun unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy muvaffaqiyatga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o‘rganadi. Farobiy bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyil bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsa, qattiq usul qo‘llanilishi lozim, degan fikrni bildiradi.

Yusuf Xos Hojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U tarbiya kishini ezgulikka o‘rgatmog‘i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go‘zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Tarbiya beldan madorni, tandan quvvatni, ko‘zdan nurni, dildan oromni talab qiladi, degan fikrni bildiradi.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida, bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borishni ta’kidlaydi: “Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o‘rganur, o‘z ixtiyori bilan o‘rganmas. Ammo farzand beadab bo‘lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o‘z qo‘ling bilan urmagil, muallimlarning tayog‘i bilan qo‘rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o‘g‘lingning ko‘nglida gina bo‘lmasin“.

Abu Rayhon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, “Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim“, deydi.

Abu All ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdan boshlashni lozim deb topadi. “Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyjanob vazifasi, bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug‘ullanishi kerak”, deydi.

Umar Xayyomning ta’kidlashicha, tarbiyaning maqsadi “sog‘lom fikr, ziyrak aql va o‘tkir zehnga ega bo‘lgan insonni shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak”. Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farosatni hosil qilish mumkin, lekin shuning o‘zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo‘lishi yaqinlarini sevishi lozim.

Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug‘ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi. Tarbiya va ta’lim ishlari o‘qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo‘lish chog‘ida ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, xushmuomalalik bilan yo‘l qo‘yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligni, biroq bu o‘rinda ma’lum me’yorga amal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o‘qituvchining, ayniqsa, talabchan bo‘lish, bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Abdurahmon Jomiy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo‘lishini alohida ta’kidlaydi.

Jaloliddin Devoniy “Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo‘lishi uning keyingi tarbiyasiga bog‘liq. Chunki hayotda har kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta’sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota- ona va

boshqa o‘zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi”, deydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda olib borishni talab etadi. U yoshlar tarbiyasida, oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Munavvar qori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etadi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorlaydi, ota-onalarni farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go‘zallik tug‘yularini rivojlantirishga da’vat qiladi.

Abdulla Avloniyning fikricha, axloq bu xulqlar majmuidir. Xulq esa, kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak.

Asqar Zunnunovning fikricha, tarbiyada bilim va tajribaga ega bo‘lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o‘qituvchi bolalarni bilimli, go‘zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zamini bo‘lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-ona. Ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, sabr durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodati mujassam bo‘lgan ona tarbiyasi darajasida bo‘lmaydi.

**Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi**

Tarbiyaviy ishlarning ta‘sirchanligi, samaradorligi ko‘p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma‘naviy merosining tarixiy ildizlarini o‘rganishga bog‘liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma‘naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an‘ana tarzida o‘ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo‘lib, avloddan avlodga yetib keladi. Millatning ma‘naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan juda ko‘p qadriyat shakllarini qamrab oladi: «Milliy qadriyatlar

murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an‘analari, jamiki moddiy va ma‘naviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir»

Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlarning quyidagi bosqichlaridan ketma-ket foydalanish mumkin. Ular:

• milliy qadriyat haqida tushuncha berish;

• ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy, moddiy boyliklar;

• xalq og‘zaki ijodiyoti;

• urf-odat va ularning tarbiyaviy ahamiyati;

• xalq yaratgan an‘ana va marosimlarni o‘rganish va nishonlash kabilar.

Milliy qadriyatlardan foydalanish, ta‘lim-tarbiya jarayoni mazmunini ochib berish o‘quvchilarda milliy g‘oya, milliy g‘urur, milliy iftixor kabi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

Milliy qadriyatlar, urf-odat, an’ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta’sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalq-parvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma’naviy – axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

Barkamol inson ota- onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a’zolari, qo‘ni–qo‘shinlari, mahalla-ko‘y, hamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘uradi;

tevarak atrofni o‘rab olgan insonlar unga kerak bo‘lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo‘lishga intiladi;

milliy qadriyatlarni e’zozlaydi va ularga sodiq bo‘lib qoladi;

milliy qadriyatlar asosida odob-axloq, fe’l- atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdiriladi;

ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy- madaniy merosni qadrlaydi;

Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Ma’naviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to‘g‘risida so‘z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o‘z asarlarida inson ma’naviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma’rifiy qarashlarini o‘stirishga alohida e’tibor qaratganlariga amin bo‘lamiz. Ular o‘z asarlari bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma’naviy asosini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni yetishtirib bergan. Ular xoh tibbiyotchi va dorishunos, xoh riyoziyotchi va falakshunos, xoh tarixchi va fiqh, xoh tilshunos va munaqqil (naql qiluvchi), xoh adib va shoir, xoh tasavvuf ilmining mashhur namoyondasiyu davlat arbobi bo‘lsin yetuk ilmiy asarlar yaratganlar.Ulug‘ bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Az Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma- mutafakkirlarning shuningdek, jadidchilarning ismlarini va ular tomonidan ta’lim – tarbiyaga oid asarlarini tilga olish kifoyadir. Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga uzviy bog‘liq bo‘lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘qdir.

Diniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ajratib o‘rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo‘shilib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi. Qadriyat – bu qadr qimmat ma’nosini anglatib, u inson uchun qadrli bo‘lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Qadriyatlar – faqat o‘tmish uchun qadrli bo‘lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui.

Xalqimiz ichida necha asrlar davomida shakllangan urf-odatlar juda ko`p. Ba’zi manbalarda ularning 376 tasi sanab o`tilgan.

An’analar qadim-qadimlardan insoniyat turmushi, ijtimoiy faoliyati, mehnatidagi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlod-ajdodlar uchun yo‘l-yo‘riq darslaridir desak yanglishmagan bo`lamiz.

O`zbek an’analari, qadriyatlari xususan xalq pedagogikasi, og‘zaki ijod, uning tarkibidagi pandnomalar, o`gitlar, nasihatlar, olqish duolar har kun har daqiqa jonli jarayonlarda yashab, turmush tarzimizni bezab, ayniqsa farzandlarimizga to`g‘ri bo`lish, to`g‘ri yashash va odob-axloqi joyida bo`lishlikni eslatib turuvchi, da’vat qiluvchi manbalardir.

Qadriyatlarimizning yana bir umumiy mushtarak tomoni shundaki, ularning barchasi, insonning iymon-e’tiqodda ma’naviy ma’rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil odam bo`lishlikka qaratilgan. Yoshlarimiz xalqona qadriyatlardan nechog‘lik ko`p saboq olsalar, ularning tafakkurlari shunchalik boyib, aql-idroklari qayrilib, har tomonlama kamol topaveradilar.

Xullas, qadriyatlar mazmuni xalq pedagogikasi qatlamlariga singdirilgan. Ular bag‘rida kamol topgan. Xalq pedagogikasi maqsadi esa farzandlarimizni yetuk fazilatlari, komil insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

O‘zbek xalq etnografiyasida avlod-ajdodlarimiz komillikka intiluvchi har bir shaxsga nisbatan quyidagi o‘git bilan murojaat qilishgan:

*O 'zbegim!*

*Osmoning musaffo, oilang tinch-totuv, dasturxoning to'kin-sochin bo'lsin, farzandlaring komil inson bo'lib voyaga yetsin, har qachon bayram, to'y-tomoshani tark etmasin. Milliy urf-odat va qadriyatlarimizga sodiq qol! An'ana, marosim, milliy urf-odat o 'zbekning o 'zligidir!*

*An'ana* — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan avlodga meros boʻlib oʻtadigan, kishilar m aʻnaviy hayotiga taʻsir koʻrsatadigan madaniy hodisadir. Anʻana oʻziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singgan (umum yoki maʻlum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

*Odat (urf-odat)* — kishilarning turmushiga singib ketgan, maʻlum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar koʻnikmasi. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qoʻyish, mehmonlarga alohida hurmat koʻrsatish, bayram arafasida qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qoʻni-qoʻshnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar oʻzbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

Odat maʻlum sharoit taʻsirida vujudga kelib, insonning feʻl-atvorida mustahkamlanib qoladi va keyinchalik doimiy elementga aylanadi.

*Marosim* inson hayotidagi muhim sanalarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy koʻtarinkilik vaziyatida oʻtadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Masalan, ism qoʻyish, nikohdan oʻtish, dafn, xotirlash, ekin ekish (urugʻ qadash), oʻrim oʻrish marosimlari.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir boʻlganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealar (masalan, tugʻilish, uylanish, oʻlim kabilar) bilan bogʻliq boʻladi.

Marosimlarni o‘tkazishda avloddan avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy an‘analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimda, bo‘layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g‘ami yoki quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajakni o‘ylab, yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o‘ziga xos tartibi (boshlanishi va nihoyalanishi) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an‘ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

An‘ana, odat, marosim bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an‘analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim bo‘lishi mumkin. «An‘ana», «marosim», «bayram» atamalari o‘zgarmas tushunchalar emas. Zamon taraqqiyoti va turmushdagi o‘zgarishlar ta‘sirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ta‘sirida talabga javob bermay qolgan an‘ana va bayramlar asta-sekin unutiladi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo‘lgan an‘analar taraqqiy etadi.

Masalan, «Navro‘z», «Qovun sayli», «Lola sayli» va h.k. bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun ham asrlar davomida yashab kelmoqda.

Xalq turmushining o‘zgarishi unga mos an‘analarni vujudga keltiradi. O‘zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvaldan mavjud bo‘lmagan ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy oilaviy an‘ana, marosim va bayramlar paydo bo‘ldi. Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda «an‘anaviy bayramlar», «yangi an‘analar» so‘zlari ishlatila boshlandi. An‘anaviy bayramlar deganda, ma‘lum vaqtda muntazam o‘tkazib turiladigan azaliy madaniy ommaviy tadbirlar — «Gul bayrami», «Lola sayli», «Qovun sayli», «Xirmon to‘yi» (hozirgi «Paxta bayrami») nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lgan xalq bayramlaridir.

Yangi an‘analar — hayotimizga kirib kelayotgan va joylarda endigina urf bo‘layotgan tadbirlardir.

Odatda, *bayram* deganda, biror-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko‘pchilik bo‘lib, ko‘tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. «Bayram kunlarida odamlar «qisqa» vaqtga bo‘lsa-da, o‘zlarini kundalik mehnatdan, tashvishdan, g‘am-g‘ussadan, qaramlikdan, qarzdan xoli, erkin sezadilar», deydi qadimshunos olim M. Qodirov.

Bayramlar har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan ko‘zgu sanaladi. Chunonchi, kishilar bayram chog‘ida chiroyli kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashib, o‘z pazandaliklari, kiyinish madaniyatlari, go‘zallikka tashnaliklarini namoyish etishadi. Bayram kuni hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi. Odamlar o‘rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, hamkorlik, hamjihatlik vujudga keladi. Bayram kuni azal-azaldan tinchlik kuni hisoblangan. O‘sha kuni urush, nizo va mojarolar to‘xtatilgan. Bu kunda kishilar o‘rtasidagi adovat, gina-kuduratlar unutilgan, o‘zaro arazlashganlar yarashishgan. Bayramlarda vujudga keladigan ko‘tarinki kayfiyat kishilarni ertangi kunga umid bag‘ishlashga, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi.

Bayram ijtimoiy-madaniy hayot ko‘zgusi sifatida har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarini ham keng namoyish qiladi.

*Navro‘z bayrami.* Bu tabiatning uyg‘onishi, ekin ishlarining boshlanishini nishonlashga qaratilgan bayram bo‘lib, marosimlarda qadimiy zardushtiylik alomatlari saqlanib qolgan. An‘anaga ko‘ra, uylarda hozir ham xuddi qadimdagidek bo‘g‘irsoq pishiriladi va marosim taomi sumalak tayyorlanadi. Bayramdan keyin, odatda, daladagi ekin ishlari boshlangan.

O‘tmishda turli urf-odatlar va marosimlar bajarilar edi: dalaga chiqishdan avval ho‘kizlarning shoxlari va bo‘yinlariga moy surtilgan. Birinchi ko‘chatni mahallaning eng e‘tiborli va keksa a‘zosi ekkan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Navro‘z bayramini nishonlash davlat darajasida muhim ahamiyat kasb etdi. Rang-barang teatrlashtirilgan tomoshalarda Navro‘zning falsafiy shoirona talqini, uning xalq tarixidagi o‘rni aks ettiriladi.

*Oilaviy an'analar, bayramlar.* Xalq an'analarining muhim qismini oilaviy marosimlar tashkil qilgani uchun ularni alohida tadqiq etish ehtiyoji yuzaga keladi. O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilganidan to u ulg'ayib, yangi oila qurguniga qadar sodir bo'ladigan muhim sanalarga bag'ishlangan marosimlar tizimi mavjud. Mazkur tizimga chaqaloqning dunyoga kelishi, unga ism berish, chaqaloq chillasi, beshik to'yi, soch to'y, tish to'yi, birinchi qadam, sunnat to'yi, muchal yoshi, nikoh to'yi kabilar kiradi.

**Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari**

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-siyosiy yuksalish, millatlararo tolerantlik asosida tinchlik va xotirjamlik, barqarorlikni soqlab qolish yo'lidagi matonatli kurash, bag'rikenglik va vijdon erkinligi, ma'naviy merosimizni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozla, taraqqiyot sari bosqichma – bosqich harakat hamisha va har qadamda umuminsoniy manfaatlar bilan integrallashuv negizida amalga oshirib kelindi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamiz ravnaqiga eng katta to'siq – bu g'oyaviy bo'shliq ekanligi har qadamda sezilgan. Bugun jamiyatimizda yashayotgan inson O'zbekiston, yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktab va oliy o'quv yurtlarida milliylikka asoslangan diniy qadriyatlar farzandlar ongiga singdirilmoqda. Ammo ma'lum bir sabablarga, ayniqsa "ommaviy madaniyat" ta'siri ostida axloqsizlik, ota-onaga nisbatan loqaydlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabilarning avj olayotganiga diniy bilimsizlik ham sabab bo'layotgani sir emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirish muhim ahamiyatga ega:

- Yoshlarimiz ongiga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki milliy va diniy

bilimlardagi ezgu qadriyatlarni singdirishni kengroq yo‘lga qo‘yish;

- Milliy qadriyatlar asosidagi urf-odat, an’ana va marosimlarni mustaqillik davrida shakllangan yangi qadriyatlar bilan boyitish;

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini halollik, bag‘rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik, ilm-fanga va vatanga fidoiylik kabi tushunchalarni targ‘ib qiladigan asarlar, videofilmlar, ko‘rsatuv, eshittirish va tadbirlar orqali yoshlarimizga singdirish;

- Jamiyatning ma’naviy yangilanishida Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri mutafakkirlarining ma’naviy va ilmiy merosidan, jadidchilarimizning sabr – toqat bilan erishgan yutuqlaridan unumli foydalanish;

Oilalar va o‘quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o‘tkazish;

- yoshlarga hayotning o‘zi eng buyuk qadriyat ekanini ta’lim va tarbiya uyg‘unligi asosida anglatib, inson jismonan va ma’nan sog‘lom bo‘lsagina oldida turgan barcha maqsadlarga erisha olishi to‘g‘risidagi uslub va vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.



**Mustaqil ishlash uchun topshiriq**

Mustaqil tarzda mavzuga oid so‘zlarni “Klaster” grafik organayzeri asosida tahlil qilib bering.

## “KLASTER” GRAFIK ORGANAYZERI

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni ta`lim oluvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

**Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:**

Nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!

Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang! Agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsating!

1-rasm. Grafik organayzerdan foydalanishda rioya qilish talab etiladigan



2-rasm “Texnologiya” so`zining “Klaster” usulining mazmuniga ko`ra izohlanishi




3-rasm “Qadriyat” klasteri tuzing



**Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlarning qanday bosqichlaridan ketma-ket foydalanish mumkin?
2. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiyilashuv (Sotsializatsiyalash) bu nima, unga izoh bering?
4. Buyuk allomalardan kimlarni bilasiz?
5. Qadriyatlarning qanday turlari bor?
6. Xalqimizga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, birodarlik, do‘stlik, sadoqat, halimlik xislatlarini qanday baholaysiz?
7. Umuminsoniy manfaatlarga milliy tiklanish g‘oyasining uyg‘unlashuvi nimalarga olib keladi?

8. Umuminsoniy qadriyatlarning qanday tamoyillari mavjud?

9. O‘zbekistonda tarbiyaning ma’no-mazmuni nimadan iborat?

10. Ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda nimalar o‘z aksini topgan?

# III BOB. TARBIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Reja:

3.1. Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati.

3.2. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchining vazifalari.

3.3. Maktabdan tashqari faoliyat ish usullari.



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti. 2021-yil.266-bet.

3. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 2021-yil.303- bet.

4. Istamova N. va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.206-bet.

5. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.21-bet.

6.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.177-bet.

7. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil.105-bet.

8. D.F. Nasimova, S.F. Tilavov Ученый XXI века • 2022 • № 5-2 (86)

“Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari” maqola.

**Elektron ta’lim resurslari:**

**1.**w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

**Tayanch tushunchalar:** Tarbiya, sinfdan tashqari ish, maktabdan tashqari ish, tarbiya fani, tadbir.

**Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati.** Maktabning o`quvchilar bilan olib boradigan o`quv mashg`ulotlaridan tashqari xilma-xil ta’lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini yo`lga qo`yish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko`ngillilik asosida tashkil qilinadi. O`quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o`zlarini qiziqtiradigan mashg`ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti

bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo`lishi lozim: pedagoglar va o`quvchilar o`rtasida o`zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o`ziga xos an’ana vositalariga tayanish; ulg`ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o`smir va yosh yigitning betakror va o`ziga xosligini hurmat qilish, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o`quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to`ldiradi. Ularning dunyoqarashini to`g`ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko`maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog`lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko`p qirralidir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish; o`quvchilarning sinfdan tashqari ko`p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o`quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo`lga qo`yish; sinfdan tashqari ishlar yo`nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o`qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o`quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko`rsatish; umummaktab va maktablararo o`tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish; o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko`rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma’muriy. Bular ko`pincha o`zaro uzviy bog`langan holda namoyon bo`ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko`zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko`p darajada o`quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o`quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo`lga qo`yishga bog`liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o`quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o`tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechalari va ertaliklari, to`garak mashg`ulotlarini o`z ichiga oladi. O`quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o`z mazmuniga ko`ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O`quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o`quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo`lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o`sishi samarali bo`ladi. Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o`quvchilar jamoada ishlashni o`rganadilar, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo`shiladilar, jamoatchilik fikriga bo`ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning

ma’naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko`ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta’lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta’sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo`lsa-da, o`sha maktablarning o`ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko`rinadi.

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma’naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi.

Mustaqil O‘zbekistonning, istiqlol va istiqboli uchun fidoiylik ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda:

- Fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag‘rikenglik va mehr-muruvvatli bo‘lish;
- davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo‘lish;
- o‘zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
- maqsadning aniqligi va uni to‘g‘ri yo‘naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o‘qituvchi va tarbiyalanuvchining hamkorlik faoliyati;
- o‘zini anglash, mustaqil fikrlovchi e’tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi”dagi g‘oyalarni bolalarning ongida o‘ziga xos va mos ravishda singdiradi.

-Xalqimizning boy ma’naviy, an’ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.

-O‘zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e’tiqodni tarbiyalash.

- Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.

- Mehrli-muruvvatli va bag‘rikenglik. Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta’limiy- tarbiyaviy faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatga ega: o‘quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o‘quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, «yaxshi», «yomon» harakatlarga chuqur munosabat bildira olmasligi kabilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o‘ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish.

2. O‘quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.

3. Kundalik o‘zgarishlarga o‘quvchilarning munosabati.

4. O‘quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an’analar haqidagi bilim darajasi.

5. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari.

Mazkur qoidalar boshlang‘ich sinflarda sodda holda qo‘llaniladi. Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o‘rinlidir. Shundagina har bir o‘qituvchilarning betakror, bir-biriga o‘xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalari bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lib maqsadga erishtira oladi.

**Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:**

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.

2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.

3. Ma’naviy tarbiya (axloq va odob).

4. Iqtisodiy tarbiya.

5. Ekologik tarbiya.

6. Go‘zallik tarbiyasi.

7. Jismoniy barkamollik (sog‘lom avlod uchun).

8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.

2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo‘lishi.

3. Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo‘lishi.

4. Mavzular o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo‘lishi.

Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari» dasturi. O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot ijtimoiy harakati» dasturi mos qilib olindi.

Quyidagi keltirilgan reja taxminiy bo‘lib, o‘z shart-sharoitingizga qarab ijodiy o‘zgarishlar kiritish mumkin.

**1. Vatan g‘ururi – kamolot mulkining asosi (I-II sinflar uchun).**

a) Tug‘ilgan uy, ko‘cha, shahar va o‘lkalarining tarixi.

b) Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona ekanligi.

v) Atrof tabiatidagi o‘simliklarning nomi va uni muhofaza qilish.

g) O‘lka tarixiga oid (tarixiy, obidalar, kimlar yashagan, iqtisodiy boyligi, san’ati va kelajak rejalar) ma’lumotlar.

e) Kindik qoni to‘kilgan joyning tuprog‘i azizlik hissini singdirish.

**2. Turmush madaniyati**

A) Sharqona oila

B) Ota-ona mehri, ularning borligidan faxrlanish

V) Oilada sharqona urf-odatlar, an’analar qonun va qoilalarga amal qilish

G) Qariyalar tarixini o‘rganish, ularning yaxshi fazilatlari bilan chuqurlashish va g‘amxo‘rlik qilish.

D) Turmush va bozor iqtisodiga sharqona munosabat uyg‘otish.

E) Jismoniy barkamollik va sport.

**3. O‘zbek tilining sofligi – xalq iftixori**

a) Har bir millatni ona tili va unga mehrli milliy g‘ururining gul tojisi ekanligi (xalqning maqol, rivoyat, hikoyatlaridan foydalanish).

b) O‘zbek tilnning tarixi, rivoji.

v) O‘zbek tilining istiqboli.

g) «Til bilgan elni biladi» (dunyo tillarining mohiyati haqida).

d) Millatlararo totuvlik.

**4. O‘zbek milliy urf odat, rasm-rusumlar va marosimlar**

a) Oilaviy urf-odatlar.

b) Rasm-rusmlar va ularning tarixi.

v) Marosimlar ularning turlari, tarixi va mazmuni.

**O‘zbekona insoniy, yuksak axloqiy sifatlar**

a) Allomalarning o‘g‘il va qizlarga aytgan nasihatlari.

b) Qizlik iffati, hayosi, g‘ururi.

v) Oila va jamoat mehnatiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish.

g) Inson go‘zalligini anglatuvchi belgilar.

d) «Yaxshilik» va «yomonlik»ni keltiruvchi hisob, uning sabablari, obro‘ qozonish oson ishmi?

e) Sayoq yurgan tayoq yer.

y) Bozor qilish odobi.

j) Tabiat go‘zalligini saqlash.

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog‘liqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir.

**Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:**

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko‘p qirrali ishlarni

o‘quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo‘lga qo‘yish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko‘rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o‘tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma’muriy.

Bular ko‘pincha o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.

2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.

4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o‘z mazmuniga ko‘ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O‘quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o‘quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa,

ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma’naviy o‘sishi samarali bo‘ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar jamoadagi ishlarni o‘rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo‘shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo‘ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar.

**Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:**

1. Og‘zaki ish usullari: majlislar, yig‘inlar, ma’ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko‘rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog‘liq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar turli qo‘llanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o‘rganadilar, o‘z-o‘zini tekshirish uchun turli ma’lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati, o‘z ifodasini topgan hujjatlar ro‘yxati, xalq ta’limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ishlab chiqiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining

yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta’limning moddiy bazasi: qo‘shimcha va ma’lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko‘zda tutiladi. Ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- Darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo‘limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma’muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muomalasi, adolatli bo‘lishi, ta’sir ko‘rsata olishi kerak.

O‘quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma’naviyati bilan ongini sug‘orish, ya’ni singdirish kerak. O‘quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an’analarimiz asosida tarbiyalash har bir o‘qituvchining vazifasi.

O‘quvchi atrofini o‘rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o‘qituvchilar, maktabning muhiti, o‘quvchilar tarbiyasini to‘g‘ri, ongli ravishda o‘rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin:

| **To‘garak turlari:** |
| --- |
| 1. Fan to‘garaklari. |
| 2. Mohir qo‘llar. |

| |
|---|
| 3. Duradgorlik. |
| 4. Sport musobaqalari. |
| 5. Badiiy havaskorlik. |

Ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma’naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma’naviy an’analarga, urf-odatlari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi-shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining to‘garak qatnashchilari ongida yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo‘lishi kerak.

To‘garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o‘rin tutadi. To‘garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo‘lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta’lim o‘qishlariga, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo‘sh vaqtlarda o‘quv tarbiya jarayonini to‘ldiradi va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak qatnashchilariga talablar qo‘yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;

2. Estetik ta’lim;

3. Sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha to‘garaklarga qatnashish;

4. Ekologik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha to‘garaklar;

5. O‘quvchilarning ma’naviy axloqiy yo‘nalishi bo‘yicha;

6. Huquqiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha;

7. Texnik ijodkorlik yo‘nalishi bo‘yicha;

8. Istiqlol bolalari va iste’dodli yoshlar;

9. Iqtisodiy ta’lim.

O‘quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo‘lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim o‘quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o‘quvchilarning o‘zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo‘llarini ancha yaxshi tushunadilar. Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O‘quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o‘z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog‘liq qilib qo‘ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo‘ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o‘quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko‘pincha sinf rahbarining yordamini so‘rab murojaat qiladilar, kuchli o‘quvchilarning qo‘llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo‘llab-quvvvatlash bo‘lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o‘quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo‘lib qolsa, u o‘quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma’naviy rivojlanishiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin.

Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O‘quvchi o‘qituvchiga taqlid asosida yoki do‘stlari orasida o‘rgangan tarbiyasi muomalasiga ta’sir qilish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan muomalasini etiborini o‘rganishi kerak.

O‘quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o‘qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O‘qituvchi talablariga:

1. Darslarga to‘liq qatnashish.
2. O‘quv qurollari bilan ta’minlanganligi.
3. O‘qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o‘quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, aks holda o‘quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo‘ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo‘qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o‘quvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo‘yilganligi xususida e’tirozlar bildirilmoqda. Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo‘ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi

shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan o‘qituvchi, sinf rahbari o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish vositalarini puxta o‘ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o‘quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o‘quvchilarni charchatib qo‘ymasin, doim bir xil tusda bo‘lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g‘ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo‘lmasin. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o‘quvchilarni o‘quv vazifalarini hal etishga o‘rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to‘g‘ri tanlashdan, o‘z xatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko‘nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o‘tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim.

Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi to‘rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o‘qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o‘quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur.

O‘qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo‘lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo‘llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o‘quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash huquqi beriladi. Unda qoida ko‘rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o‘quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo‘ladi, lekin u o‘quvchining fikrlashi qanday borganligini ko‘rsatadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o‘quvchilarni ayrim ko‘nikmalarga o‘rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak.

O‘z-o‘zini tekshirish, o‘zaro tekshirish usullariga o‘rgatish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi

jarayoni ravshan bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘zlari harakatni taklif etadilar va u bilan pedagogga muayyan ma’lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to‘la ishlab chiqilgan.

Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Ta’riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi.

4. O‘rta umumta’lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishaga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko‘p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

-Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

-O‘quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko‘p qirrali ishlarni pedagogik

jamoa, o‘quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo‘lga qo‘yish.

-Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o‘quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko‘rsatish.

-Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish.

-O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligining 3 asosiy tomonini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma’muriy.

Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘ladi. Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;

2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

3. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl usullarini aniqlash.

4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Shular asosida yangi bilimlarni hosil qiladi. O‘quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo‘ladi. Maktabdan tashqari ishlarda o‘quvchilar jamoadagi ishlarini o‘rganadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo‘mitasi, ish rejalari ishini ham e’tiborga olishi kerak. Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida bolalarning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o‘zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati o‘z ifodasini topgan hujjatlar ro‘yxati xalq ta’limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

A. Jo‘rayevning «Tarbiyaviy darslarni o‘tish» risolasida mustaqillik g‘oyasi bilan bog‘langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan. Ijodkor rahbar hamda ilg‘or o‘qituvchi tarbiyachilar o‘z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

-Tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish;

-ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e’tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;

-tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab bola qalbiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish;

-tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta’lim bilan uzviyligini ta’minlash;

-tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish;

-bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

-bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va

tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog‘liq.

Sinf rahbarining o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutishda va muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlarni o‘ziga mujassamlaydi.

Davlat va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o‘quvchi-yoshlar orasida targ‘ib eta olishi, xalq pedagogikasi an’analarini, o‘zbek xalqi milliy urf-odatlari, qadriyatlari, allomalari o‘gitlarini yaxshi bilishlari lozim.

– Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o‘z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

– radio, televideniya va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lishi hamda ularning mohiyatini o‘quvchilarga yetkaza olishi;

– sinfdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o‘tkaza bilishi;

– tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

– maktabda o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

– muntazam ravishda o‘z malakasini oshirib turishi, o‘z sohasi bo‘yicha o‘tkaziladigan seminarlarda ishtirok etish. Fuqarolik faoliyati o‘z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me’yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma’naviy yetuklikni barqaror etadi:

– Islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

– siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

– xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya’ni qonunchilik tamoyillarini, o‘zining vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat’iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo‘lish;

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko‘rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg‘or narsalarni amalda samarali qo‘llay bilish maktab o‘quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish prinsiplaridan biridir.

Samarali sinf rahbarlik uslubini maktab hayoti va faoliyatiga tatbiq etishning namunasi bo‘lgan kollegial va yakka rahbarlikning birga qo‘shib olib borilishi bolalar taqdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta’minlaydi.

Sinf rahbarlikning zarur prinsipi rejalilik bo‘lib, uning yordamida pedagogik ta’sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik sinf rahbariga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta’limotga asosan maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning umummaktab rejasini ma’naviy va ma’rifat bo‘yicha direktor o‘rinbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o‘qituvchilar, maktab kutubxonasi, o‘quvchi-yoshlar tashkiloti, o‘quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to‘garak

rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni maktabning yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang‘ich va o‘quv sinflar tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e’tibor beradi, bu bilan ta’lim jarayonida ham, shuningdek, darsdan tashqari vaqtda ham tarbiyaning uzluksizlik va prinsipliligini amalga oshiradi.



**MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQ**

Mavzuga oid bo‘lgan so`zlardan foydalanib “Sinkveyn” metodini qo`llab topshiriqni mustaqil tarzda bajaring.

## SINKVEYN

Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g‘oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so‘zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o‘ylangan refleksiyani talab qiladi. Sinkveyn bu she’r bo‘lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi. Sinkveyn so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she’rdir. Sinkveynni yozib chiqish qoidasi mavjud bo`lib, uni quyidagi rasmda ko`rish mumkin:

1-rasm Sinkveynni yozib chiqish qoidasi

Birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).

Ikkinchi qatorda mavzu ikki soz bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so’z bilan).

Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo‘yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tavsif etiladi

To'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko`rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi va beshinchi qatorda 1 – ga sinonim qo’yiladi.

**Masalan:**

1. Shaxs (kim? ot)

2. Komil, psixologik (qanday? sifat)

3. Fikrlaydigan, shug`ullanadigan, gapiradigan (nima qiladi? fe`l)

4. Inson-doim izlanuvchi shaxs. (gap)

5. Individ.



**Nazorat uchun savollar:**

1.«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq vazirligi tomonidan qachon tasdiqlangan?

2. Tashkilotchilik faoliyatiga qanday ishlarni kiritish mumkin?

3. O‘quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o‘qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. Bular qanday talablar?

4. Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan qanday to‘garaklar turini bilasiz?

5. Maktabdan tashqari faoliyatning og‘zaki ish usullariga misol keltiring.

6. Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat?

7. Maktabdan tashqari ta’lim o‘qishlariga, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo‘sh vaqtlarda o‘quv tarbiya jarayonini to‘ldiradi va qanday yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak qatnashchilariga talablar qo‘yilishi kerak?

8. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari nimadan iborat?

9. Ijodkor rahbar hamda ilg‘or o‘qituvchi tarbiyachilar o‘z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda qanday tamoyillarni asos qilib oladilar?

10. Maktabdan tashqari faoliyatning og‘zaki ish usullariga nimalar kiradi?

# IV BOB. MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN’ANALAR TARBIYA ASOSI

**Reja:**

4.1. Urf-odat,qadriyat va an’analar haqida tushuncha.

4.2. Qadriyat turlari.

4.3. Shaxsning ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** qadriyat, ma’naviy qadriyat, ta’lim, tarbiya, oliy qadriyat, an’ana, milliy qadriyat.



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A. Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 104-bet.

2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.67-bet.

3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv

qo‘llanma.T:.O‘qituvchi 2010-yil.173-bet.

4. R.A. Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.205-bet.

**Elektron ta’lim resurslari:**

1.w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

Mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq.

Qadriyatlar - inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyat turlari quyidagilar:

tabiiy qadriyatlar;

moddiy qadriyatlar;

ma’naviy qadriyatlar;

estetik qadriyatlar;

milliy qadriyatlar;

umuminsoniy qadriyatlar;

Tabiiy qadriyatlar – bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur boʻlgan resurslar, ya’ni yer va yerosti boyliklari, suv, havo, oʻrmonlar oʻsimliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Moddiy qadriyatlar – bu insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrli boʻlgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne’matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshiradigan buyumlar.

Ma’naviy qadriyatlar – bu siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlar.

Estetik qadriyatlar – bu barcha ham shaklan, ham mazmunan goʻzalliklardir.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma’lum shakl va mazmunga ega boʻlgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu umumbashariy ahamiyatga ega boʻlgan va uning svilizatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuasidir.

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va elatlarning oʻz tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma’naviy) boyliklari yigʻindisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tuman boʻlib, bular ichida “eng oliy qadriyat – inson” hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma’naviy, tarixiy hamda ta’limiy jihatlari oʻziga xos yangicha fikrlash va yondashishlarga asoslanadi. Jamiyatda milliy qadriyatlarni oʻz qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni goʻzal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiyatda amal qilayotgan progressiv gʻoyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval oʻz-oʻziga va shu jamiyatga boʻlgan hurmati

hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu insonga o‘z xulq-atvorini tartibga solishi, o‘ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo‘lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma’naviy pokligini ta’minlovchi bir buyuk manbadir. Bir so‘z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma’naviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targ‘ib qildilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholadilar. Shu ma’noda o‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me’yor va qoidalardan iborat bo‘lib, ular kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me’yor va tartibqoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo‘lgan axloqqa ega bo‘lishlikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o‘zgarmaguncha inson ham o‘zgarmaydi.

O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur”.

Axloq - inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi. Axloq - tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zamonlar uchun bir xil, o‘zgarmas bo‘lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa davrga kelib noto‘g‘ri bo‘lib qolishi mumkin. O‘zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o‘tgan saboqlari va bizga doimo madad bo‘lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish

haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. Chunonchi, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Amir Temurning „Temur tuzuklari“, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiya sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o‘rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarga e’tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqilligimizni mustahkamlashda o‘z e’tiqodi, g‘ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadilar. Ular jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o‘rtasida do‘stlik, sog‘lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladilar.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada sog‘lom ma’naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog‘lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Kishi o‘z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko‘p intilsa, shunchalik o‘z xato-kamchiliklarini anglab boradi. Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an’analarga ega.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o‘quvchida jamiyatga bo‘lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo‘lishga, o‘zini-o‘zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo‘lgan e’tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o‘quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo‘lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o‘z o‘quvchilariga tushuntirishlari darkor. Ma’naviy-axloqiy tarbiya - ma’naviy ongni bir maqsadni ko‘zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi: jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning

rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy axloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang‘ich maktab muhim o‘rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pag‘onaga ko‘tarishdir. Iymon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim.

Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. O‘quvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg‘ulari, turli xalqlarga bo‘lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo‘lishi zarur. O‘zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o‘qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko‘ra bugungi jamiyatimizda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o‘lkaning haqiqiy egasi bo‘lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg‘urishi, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim.

Diyorimizda mustaqillik tantanasi tufayli ta’lim-tarbiya tizimida tub o‘zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma’naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an’analariga e’tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. O‘lkamizda buyuk rejalar, bunyodkorlik ishlari aql-idrok, sabr-qanoat bilan tarixiy an’analarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

An’ana - bu o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan-avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma’lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat (“urf-odat”) - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo‘lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish;
- yordam lozim bo‘lganlarnikiga hasharga borish kabilar o‘zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an’ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo‘lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarida, ya’ni:

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;
- oilaviy munosabatlarda ko‘proq mavjud bo‘ladi.

Marosim - an’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik, tantanavor vaziyatda o‘tadigan o‘zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo‘yish marosimi;

- nikohdan o‘tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- urug‘ qadash marosimi;
- o‘rimga kirish marosimi va boshqalar.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo‘lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganda vujudga keladi.

**Qadriyat turlari.** O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbeklar millatining tashkil etilishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an’analarining uyg‘unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o‘ta o‘ziga xos, yorqin va turli-tuman bo‘lib, urug‘chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko‘pchiligi oilaviy hayotga oid bo‘lib, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik to‘yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to‘yi, to‘y) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom dini qabul qilinganidan beri ko‘pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta’sirida o‘zgargan, o‘zbeklarning hayotiga musulmon diniy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig‘iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o‘qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o‘tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham saqlanmoqda.

### Beshik to‘yi

Beshik to‘yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka belash bilan bog‘liq bo‘lib, nishonlanadigan marosimdir. Bu eng qadimgi va O‘zbekistonda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to‘y chaqaloq tug‘ilishining 7-, 9-, 11-kuni o‘tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o‘zicha xususiyatlarga ega bo‘ladi va oilaning moliyaviy ahvoliga bog‘liq bo‘ladi: o‘ziga to‘q oilalar odatda bu to‘yni katta ko‘lamda o‘tkazadi, o‘rta tabaqa vakillari esa uni kamtarona nishonlaydilar.

Dasturxonga non, shirinliklar va o‘yinchoqlar o‘rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg‘alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg‘alar mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog‘ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo‘natiladi. An’anaga ko‘ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o‘ng yelkasiga qo‘yadi, keyin o‘g‘lining yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O‘tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo‘lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o‘tirgan paytda qo‘shni xonada onaxonlar ishtirokida bolani yo‘rgaklash va beshikka solish marosimi o‘tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko‘rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg‘alar ulashadilar va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar. Bolaning ilk uyi bo‘lmish beshikka hurmat hozirda ham ezozlanib kelinadi.

## Xatna qilish

Xatna qilish to‘yi – islom tomonidan muqaddas deb e’zozlangan yana bir qadimiy o‘zbek odatidir (sunnat to‘yi). Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o‘tkaziladi. Sunnat to‘yining o‘tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. O‘g‘il bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab uning ota-onasi asta-sekinlik bilan kerakli narsalarning hammasini sotib olib, sunnat to‘yiga tayyorgarlikni boshlaydilar. Ko‘pincha oddiygina «to‘y» ham ataladigan marosimning o‘tkazilishidan bir necha oy avval unga bevosita tayyorgarlik boshlanadi. Qarindoshlar va qo‘shnilar ko‘rpalarni tikishda, to‘y sovg‘alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko‘p bolali onalarga topshiriladi. To‘ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur’on o‘qiladi. Dasturxon yoziladi. Shundan keyin Qur’ondan suralar o‘qiladi va oqsoqollar o‘g‘il bolaga duo o‘qiydilar. Shundan so‘ng katta «to‘y» boshlanadi. «To‘y» dan avval bolaga qo‘shnilar, oqsoqollar, qarindoshlarning oldida sovg‘alarni, zar tikilgan kiyimlarni

kiydirishadi. O‘tmishda toychoqni sovg‘a qilish rasm bo‘lgan edi, bolani endilikda u jangchi bo‘lganligini bildirib, unga bolani o‘tqazar edilar. Hamma o‘g‘il bolani tabriklab, uning ustidan pul va shirinliklar sochadi, keyin bularning hammasi ichkarida, ayollarning xonalarida davom etadi. Shu kunning o‘zida ayollar davrasida «taxurar» - ko‘rpalar, yostiqlarni supaga taxlash marosimi o‘tkaziladi, buni odatda ko‘p bolali ona bajaradi. Marosimni mo‘l-ko‘l dasturxon, jumladan bayram oshi tamomlaydi. An’anaga ko‘ra oshdan keyin kechqurun hovlida katta gulxan yoqiladi va odamlar gulxan atrofida turli o‘yinlarni uyushtiradilar.

## Fotiha to‘yi

Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqichda o‘tkaziladi. O‘g‘il voyaga yetganda ota-onasi unga har tomonlama to‘g‘ri keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo‘shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko‘rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so‘ng qo‘shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to‘yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqollar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig‘iladi. Sovchilar o‘zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog‘langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to‘yi nikoh tuziladigan va to‘y o‘tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilarning har biriga ichida ikkita non, shirinliklar bo‘lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va uning ota-onalariga sovg‘alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo‘lidan sovg‘alar qo‘yilgan patnislarni olib, «sarpo ko‘rar» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko‘p bolali ona tomonidan ochiladi. Barcha yig‘ilganlar kelinning uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo‘ladilar. Fotiha to‘yidan boshlab to‘yga qadar yoshlarning ota-onalari qalin, sep

masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To‘ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o‘tkaziladi, unga qiz o‘zining yaqinlari va o‘rtoqlarini taklif etadi.

**Nikoh to‘yi**

Nikoh marosimi an’anaviy tarzda o‘zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo‘la turib, u turli viloyatlarda o‘zgacha tarzda nishonlanadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o‘tishi paytidir. To‘y kuni kuyovnikida to‘y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinning uyiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o‘tkaziladi. To‘y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o‘qiydi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o‘qilganidan so‘ng yoshlar o‘zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun FHDYOga boradi. To‘y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to‘yga sovg‘a qilingan kiyimlar va poyabzal) kiydiriladi, shundan so‘ng kuyov o‘z oshnalari bilan kelinning ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so‘ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelin uyida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo‘lib o‘tadi. Kelin bilan birga yaqin dugonalari ham boradi. Ular qo‘shiqlar kuylab raqsga tushadilar («O‘lan» va «Yor-yor» qo‘shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to‘y boshlanadi. Ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovning oshnalari va yaqin qo‘shnilari yig‘iladi. Ularning hammasi navbati bilan kelinning oldiga kelib, o‘zining tilaklari, sovg‘alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

**Ertalabki osh**

Ertalabki osh marosimi to‘y (sunnat to‘yi yoki nikoh to‘yi) va aza ma’rakasida (o‘limidan keyin 20 kun hamda bir yildan keyin) o‘tkaziladi. To‘yni o‘tkazuvchilar ertalabki oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalla yoki hudud

qo‘mitasining jamoatchiligi bilan kelishgan holda belgilaydilar. Shu kunga qarindoshlar, qo‘shnilar va tanishlariga taklifnomalar yuboriladi. Bir kun oldin kechqurun «sabzi to‘g‘rash» marosimi o‘tkaziladi, unga odatda qo‘shnilar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to‘g‘rab bo‘linganidan keyin barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif etiladi. Odatda sabzi to‘g‘rashga sozandalar ham chaqiriladi. Ovqatlanish paytida oqsoqollar kelganlar o‘rtasida ishlarni taqsimlaydilar. Ertalabki osh bomdod namozining tugashi paytigacha tayyor bo‘lishi lozim, chunki namozdan chiqqan kishilar birinchi mehmonlar bo‘ladi. Ertalabki namoz tugagan paytda karnay-surnay va nog‘ora ovozlari ertalabki osh boshlanganidan xabardor etadi. Mehmonlar dasturxonga o‘tirib, fotiha o‘qiganlaridan keyin ularga non va choy tortiladi. Shundan keyingina laganlarda ikki kishiga birlagan hisobidan osh olib kelinadi. Ovqatdan keyin laganlar olib quyiladi, mehmonlar yana fotiha o‘qib, mezbonga minnatdorchilik bildirib ketadilar. Ular ketganidan keyin dasturxon tezgina yangi mehmonlarning tashrifi uchun tuzatiladi. Ertalabki osh odatda ko‘pi bilan  bir yarim-ikki soat davom etadi. Shu vaqt mobaynida taklif etilgan san’atkorlar qo‘shiq aytadilar. Ertalabki osh tugaganidan keyin faxriy mehmonlarga sovg‘alar – odatda choponlar (milliy erkak to‘nlari) beriladi. Aza paytidagi ma’raka oshi shu bilan farq qiladiki, mehmonlar dasturxonga o‘tirganlarida Qur’on suralarini o‘qiydilar va o‘lgan odamni xotirlaydilar. Ovqat tugaganda ham Qur’on suralari o‘qiladi. Ma’raka oshida san’atkorlar chaqirilmaydi, dasturxon bayram to‘y oshiga qaraganda kamtarroq bezatiladi. Shuni aytib o‘tish lozimki, bayram to‘y oshi va ma’raka oshida faqat erkaklar xizmat qilishadi.

## Bayramlar

Eng muhim davlat bayrami – Mustaqillik kuni, 1- sentyabrda tantanali nishonlanadi. Har yili 8- dekabr kuni 1992 yilda mustaqil O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi xotirasiga nishonlanadi. Ko‘pgina boshqa davlatlardagidek, 9-mayda G‘alaba kuni – Xotira va qadrlash kuni nishonlanadi. Ro‘za tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan bayram – Ramazon hayit va Qurbon hayit keng bayram qilinadi. Qurbon hayit eng ahamiyatli musulmon bayramlaridan

biridir. Shu kuni belgilangan marosimlar va urf-odatlarni bajarganlaridan keyin musulmonlar mehmonlarga boradi yoki o‘zi mehmon kutadi, bemorlar, yolg‘izlarga yordam beradi, yaqinlariga rahmdillik qiladi. «Ramazon hayit» - ma’naviy va ruhiy poklanish bayrami nihoyatda go‘zaldir. U islom qonunlariga ko‘ra musulmon hijriy yilning 9-oyiga to‘g‘ri keladigan 30 kunlik ro‘za tugaganda boshlanadi. Shu bayram kunlari vafot etganlarni xotirlash, bemorlar, qarilarni ziyorat qilish, xayriya va boshqa ezgu ishlarni bajarish odat tusiga kirgan.

## Shaxs ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya’ni ularni o‘qishga, ta’lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg‘otishi bilan birga ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o‘stirishga o‘z kasbiy faoliyatini to‘liq safarbar etmog‘i lozim. Bunda ular o‘z o‘quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtayi nazaridan), ma’naviy ehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jamoa - mahalladagi muhit umumsog‘ligi) kabi omillarni e’tiborga ola bilish qobiliyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi:

- O‘z o‘quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish;
- pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylantirish;
- ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchikov bo‘lish; pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish; adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat’iyatlilikni uyg‘un holda olib bora olishlik;
- maqsadga intilishda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlik;
- vazminlik, dilkashlik, o‘zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va shu kabilar.

Shuning bilan birga bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yoshlardagi burchga mas’uliyat (javobgarlik hissi)ni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal egallamog‘i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- Oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;

- bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to‘g‘rilik va egrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, ma’naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini singdira olish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- bolaning erkin, mustaqil va to‘g‘ri, keng ko‘lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish;

- o‘tmish boy milliy-ma’naviy merosimizga hurmat uyg‘ota bilish uslubiyatini yarata bilish;

- milliy g‘ururni uyg‘otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g‘ururni shakllantirish, fidoyilikni shakllantirishning sir-asrorlarini o‘rgata bilish;

- o‘z o‘quvchilarini go‘zal, ziyrak, aqlli, ongli, milliy g‘ururli, sezgir, o‘tkir zehnli, farosatli, madaniyatli, ma’naviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovatsion yondashuvlar qila olishga erishish;

- o‘z o‘quvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ma’naviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar.

Umuminsoniy qadriyatlar o‘zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko‘plab xalqlar (elatlar, millatlar)ning o‘tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi (kecha > bugun > ertaga tizimi bo‘yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o‘zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarninggina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliy qadriyat bo‘lmish odamning o‘zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lgan jihatlar ekan. Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo‘lgan, ularning insoniy fazilatlari, xislatlarini ifodalaydigan an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, fikrlar, g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo‘lib, undan ta’lim-tarbiya sohasida samarali foydalanish ko‘plab istiqbolli muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir qiladi.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

### “BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM” (BBB) GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer ta`lim oluvchi (talaba)larga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda ta`lim oluvchi (talaba)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. Guruhlar faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

Har bir guruh umumiy sxema asosida Ta`lim beruvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha Ta`lim beruvchitomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

1-rasm Guruhlar faoliyatini tashkil etish namunasi

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

**BBB grafik organayzerining yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan sxemasi**

| **Bilaman** | **Bilishni xohlayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

Ta`lim oluvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi

Ta`lim oluvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi

Ta`lim oluvchilar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi

2-rasm. Grafik organayzerlardan foydalanish bosqichlari

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti quyidagicha:

1) ta`lim oluvchi (talaba)lar kichik guruhlarga biriktiriladi;

2) ta`lim oluvchi (talaba)larning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi;

3) ta`lim oluvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;

4) ta`lim oluvchi (talaba)larning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi;

5) ta`lim oluvchi (talaba)larning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo‘yiladi;

6) Ta`lim beruvchi yangi mavzuga oid umumiy ma’lumotlardan ta`lim oluvchilarni xabardor qiladi;

7) ta`lim oluvchi (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo‘yiladi;

9) mashg‘ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.




**Nazorat uchun savollar:**

1.Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi, bular qaysilar?

2. “Axloq” so‘zining ma’nosini izohlang.

3. Shaxs ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati haqida fikr yuriting.

4. An’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lgan marosimlarga misol keltiring.

5. Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi, bular qaysilar?

6. An’ana so‘zining ma’nosini izohlang.

7. Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, nimalarga e’tibor berish kerak?

8. Qadriyatlar turli-tuman bo‘lib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi, bu qaysi qadriyat?

9. An’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik, tantanavor vaziyatda o‘tadigan o‘zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir hisoblangan marosimlarga misol keltiring.

10. Kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari bo‘lmish odatlarni sanang.

# V BOB. TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHINING O‘Z USTIDA ISHLASH IMKONIYATINI TASHKIL ETISH

**Reja:**

5.1. O‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning psixologik va pedagogik asoslari.

5.2. O‘qituvchi irodasi hamda his-tuyg‘usini tarbiyalsh va ularni mustaqil tarbiyalash usullari.

5.3. O‘z-o‘zini tarbiyalash metod va vositalari.

**Tayanch tushunchalar:** qadriyat, ma’naviy qadriyat,tarbiyalash,metod, ta’lim,tarbiya oliy qadriyat, an’ana, his-tuyg‘u, milliy qadriyat.



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar


1. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2010 y.332-bet.

2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O‘qituvchi nashriyoti. 2021-yil.86-bet.

3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.198-bet.

4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.44-bet.

5. Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.303-bet.

6. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil.428-bet.


**Elektron ta’lim resurslari:**


**1.**w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

**O‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning psixologik va pedagogik asoslari.**O`qituvchi o`z-o`zini tarbiyalashi uchun, avvalo, o`zini atroflicha chuqur o`rganishi, o`z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko`ra olishi kerak. O`z-o`zini o`rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o`rganmay, o`zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o`zini shaxs sifatida o`rganish mumkin emas. O`zini anglash, o`zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Pedagogning vazifasi faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko`rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o`z irodasini o`zi tarbiyalashga intiluvchi o`quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko`rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta`rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo‘llayotgan sodda va yasama usullarga e`tibor beradigan bo`lsak, yana ham muhimdir. O`quvchilardan biri «sabr-toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko`rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo`lini pichoq bilan kessa yoki dunyo bo`ylab sayohat qildi va hokozo. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o`spirin bir lahzalik «irodaviy xatti-harakat»ni amalga oshirib, o`zining irodasi kuchli ekanligi to`grisidagi fikrni tasdiqlay oladi. Aslida esa irodani kundalik hayotda, o`qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etishni tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o`qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o`quv, mehnat va boshqa faoliyatni amalga oshirishga xalaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi.

Eng avvalo o`qituvchi o`zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o`rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbati yuksak o`qituvchi ishga chin ko`ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo`l qo`ymaydi. O`z kasbini sevgan o`qituvchi doimiy ravishda g‘oyaviy-siyosiy saviyasini

oshiradi va bilim doirasini kengaytiradi, o`z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

**O‘z ustida ishlash** quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.

Ular:

1. O’z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash.
2. Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarini bartaraf etish.
3. Ushbu qaror bo’yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo’llarini izlash.
4. Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish.
5. Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;

- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

| Bosqichlar | Ularda amalga oshiriladigan vazifalar | Qaydlar |
|---|---|---|
| 1-bosqich | | |
| 2-bosqich | | |
| 3-bosqich | | |
| 4-bosqich | | |
| 5-bosqich | | |

(1-jadval)Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli

Pedagoglarning o‘z ustlarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, tarbiyachi bu holatni alohida bandda qayd etadi.

Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. Ma`lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. Tarbiyachilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e`tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo‘ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jaroyondir.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida barcha mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan asosiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning tipik ( keng tarqalgan) metodlari :

- bolalarning avvalgi tajribalariga murojaat qilish;

- muammoli topshiriqlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish va vaziyatlarni muhokama qilish hamda qaror qabul qilish;

Tadbirkorlik va rolli o‘yinlar, mashg‘ulotlar;

Loyihaviy faoliyat : hayotiy vaziyatlarga bog‘liq tadqiqotchilik, ijodiy, rolli faoliyatlar, amaliyotga yo‘naltirilgan ( kichik) mini-loyiha va loyihalar.

Shuni esda tutish lozimki, maxsus qo‘shimchalar (o‘z-o‘zini baholash, guruh maqsadini taxmin qilish) bilan ta’minlanmagan ba’zi shakl va metodlar asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashmaydi. Masalan: o‘qituvchi monologi, ommaviy – yakka tartibda (frontal-individual) so‘rov o‘tkazish, an’anaviy shakldagi nazorat, videofilm namoyishi, tarbiyachi tomonidan berilgan mustaqil ish.

Zamonaviy pedagog pedagoglarni mustaqil, rejali ishlashga, o‘zining va o‘zgalarning vaqtini oqilona taqsimlashga, axborotnoma(spravochnik) va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashga, tezis va referatlar yozishga o‘rgatishi lozim.

Tarbiyachi umumpedagogik mahoratni professional tarzda egallagan bo‘lishi:

- real mavjud ijtimoiy psixologik hodisalar holatini, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish sababalarini, shart-sharoitlari va xarakterini tahlil qila bilishi va baholay olishi;
- tarbiyalanuvchilarning bilimdonligi va tarbiya olganligi darajasini aniqlay bilishi;
- shaxs va jamoa rivojlanishini rejalashtira bilishi;
- ta’lim va tarbiyaning natijalarini o‘quvchilarning duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldindan ko‘ra bilishi;
- konkret pedagogik vazifani ajratib ola bilishi va aniq ifodalay olishi, uni hal etish shartlarini belgilay olishi;

- o‘quv mashg‘ulotlari va mashg‘ulotdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish yuzasidan o‘z ishini rejalashtira olishi;

- ta’lim va tarbiya ishi metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini asosli tarzda tanlay bilishi;

- rejalashtirilgan ta’sir tizimiga nisbatan bolalar tomonidan javob tariqasidagi munosabatning xarakterini oldindan ko‘ra bilishi;

- ta’lim va tarbiya materialini ta’lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq tarzda, bolalarining maktab ta’limiga tayyorgarligini va tarbiyalanuvchi darajasini hisobga olgan holda tanlab, tahlil va sintez qila bilishi;

- mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishi va ijodiy yondasha olishi va didaktik jihatdan aylantira olish;

- mashg‘ulotni tashkiliy va pedagogik mantiqiy-psixologik jihatdan ijodiy va asosli tarzda qo‘llay bilish;

- bolalar faoliyatining har xil turlarini mavjud pedagogik imkoniyatlarini aniqlab, harakatga keltira olishi;

- alohida bola va jamoa uchun topshiriqlarni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda belgilay olishi va ular mantiqan ilgari surilayotgan tarbiyaviy maqsadlarga moslangan holda o‘zgartira bilishi;

- bolalarning harakati strukturasini va ular faoliyatiga pedagoglar rahbarligini rejalashtira olish;

- ta’lim va tarbiya metodlarini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda qo‘llana bilishi;

- bolalarning xulq-atvori, intizomi va faolligini idora qila bilishi;

- tashqi ko‘rinishi va qilmishlariga qarab bolalarning psixik holatidagi o‘zgarishlarni aniqlay bilishi, ular xulq-atvorini konkret hayotiy vaziyatlardagi xususiyatlarini tushunib yetishi va izohlab bera olishi;

- o‘zini xayolan tarbiyalanuvchilar o‘rniga qo‘yib ko‘ra bilishi;

- bolalarni ergashtira olishi, ularni ijtimoiy jihatdan qimmatga ega bo‘lgan yangi istiqbollarga qiziqtira bilishi;

- bolalarning umumiy vazifani bajarishi uchun guruhlarga ajratish chog‘ida

ularni o'zaro munosabatlarini, shaxsiy maylligi va xushlamasligini inobatga olishi;

- o'quv-tarbiya ishida qo'llanilayotgan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllarning bir-biriga solishtirilgan holda samaradorligini aniqlay bilishi;

- professional pedagogik faoliyatdagi yutuqlar va kamchiliklarning tabiatini tahlil qila bilishi;

- o'z tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishi;

o'z tajribasini pedagogika nazariyasi bilan taqqoslab ko'rishi, o'z oldiga tadqiqiy vazifalarni qo'ygan holda tegishli metodikani qo'llay bilishi; erishilgan natijalarni tahlil qilish negizida navbatdagi pedagogik vazifalarni ilgari surishi va asoslab berishi kerak.

**O'qituvchi irodasi hamda his-tuyg'usini tarbiyalsh va ularni mustaqil tarbiyalash usullari.** Pedagogik mahoratni tarbiyalashning ilmiy – nazariy asoslari yana bir rus pedagogi V.A Slastyonin tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy – pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanishi yo'nalishidagi ilmiy maqolalarida V.A. Slastyonin pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: - "Pedagog muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, pedagoglik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir. Amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezisiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul". Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lib, pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun ilmiy – nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinar ekan, o'qituvchi doimo uni qo'lga kiritishga harakat qilmog'i darkor.

"O'z-o'zini tarbiyalash" iborasi pedagogik adabiyotlarda asosan o'tgan asarning o'rtalarida ishlatilgan bo'lsada, o'z-o'zini takomillashtirish haqida

qadimdan fikr yuritiladi. O‘tmishning ko‘pgana faylasuflari, pedagoglar o‘z- o‘zini takomillashtirishning mohiyati uning jamiyat va inson hayotidagi rolini ochib berishga urinishgan.

Pedagogika shaxsning shakllanishini ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon deb hisoblaydi va o‘z-o‘zini tarbiyalashni dialektik nuqtai nazardan tushuntiradi. Inson tabiati shunday tarkib topganki, odam faqat o‘z zamondoshlarining takomillashtirilishi, ularning baxt-saodati uchun ishlabgina o‘zining ham mukammal bo‘lishiga erisha oladi.

Odamning ma’naviy o‘sishini jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan ajralgan deb qarash mumkin emas. Har qanday faoliyatda o‘z-o‘zini o‘zgartirish sharoitlarning tubdan o‘zgartirilishi bilan birga sodir bo‘ladi.

Inson tevarak-atrofdagi olamni o‘zgartirish bilan birga o‘zini ham o‘zgartiradi. Mana shunday falsafiy asosda qaralganda o‘z-o‘zini tarbiyalash – bu insonning butun ijodiy, o‘zgaruvchanlik, yaratuvchanlik faoliyatining ajralmas qismidir. Tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash tevarak-atrofdagi olamni yaxshilashga qaratilgan faoliyat jarayonida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, inson ijtimoiy mavjudotgina bo‘lmay, tabiat mahsuli hamdir. Uning dunyoga kelishi, o‘sishi hayotning umumiy qonuniyatlari birinchi navbatda o‘z-o‘zining boshqarish va mustaqil rivojlanishi kabi jarayonlarga ham bog‘liqdir.

Mustaqil rivojlanish shaxs o‘zi anglagan yoki anglamagan bo‘lishi mumkin. Shaxs o‘z rivojlanishini anglagandagina bu rivojlanish o‘z-o‘zini o‘stirishga aylanadi. O‘z-o‘zini o‘stirish o‘z navbatida rivojlanib borib shaxsning takomillashtirishga binobarin o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanish mumkin.

Shaxsni shakllantirishda tarbiya mustaqil rivojlanishning anglangan (o‘z-o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish) va anglanmagan (moslashishi, ergashish kabi) shakllari bilan bog‘liqdir. Kishi o‘z shaxsining shakllanishida hamma vaqt bevosita ishtirok etadi. Lekin bunday ishtirokning anglangan va faollik darajasi har xil bo‘ladi. Masalan, kishi o‘zi anglamasdan birov qilayotgan ish-harakatni unga

ergashib bajarishga kirishadi. Bunday ergashish borib-borib ongli haraktga, ongli harakat o‘z navbatida o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanadi.

Tarbiya kuchayib, o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanishi uchun muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar zarur bo‘ladi. Tadqiqotchilar ichki zaminlar qatoriga o‘z-o‘zini anglab bilishining yuksak darajada bo‘lishini (A.YA.Aret, A.A.Bodalev, A.G.Koralev), o‘z-o‘zini boshqara olishni (V.I. Selivanov, A.I. Visotskiy) tez rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojni kiritadilar.

Hozirgi zamon va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchilarga etkaza olish va nihoyat o‘quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishni talab qiladi.

Shuning uchun o‘qituvchi avvalo tadqiqotchilik malkalarini egallashi zarur. tarbiyachi ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish davomida ma`lumotlarni to‘playdi., tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik tajriba tarbiyachining o‘quv ishlari jaroyonida egallaydigan bilim va ko‘nikmalari yig‘indisidir. Bu tarbiyachining pedagogik mahorati bo‘lib, u pedagogika fanini rivojlanishida boshlang‘ich omil hisoblanadi. Pedagogik tajriba to‘plash tizimi:

1.Maqsadni belgilash (nimani o‘rganaman).

2.Tahlil etish, umumlashtirish xulosa qilish.

3.Yutuqlarini aniqlash.

4.Ma`lumot to‘plash

Ma`lumki, insoniyatni kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko‘pki, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o`z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy faktlarda ko‘ramiz.

Buyuk nemis pedagogi D.Disterverg har bir o`qituvchi o‘z-o`zini tarbiyalashni o`z oldiga sharafli vazifa qilib belgilashi lozim.

Rus pedagogi A.B. Lunacharskiy; «Pedagog uzida insoniyat idealini shakllantirishi lozim» -degan edi.

Aynan insoniyatning go‘zal fazilatlarini o‘zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o`z ustida ishlash tufayli kundan-kunga o‘sib borishi mumkin.

A.S. Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida shunday degan edi. «Men pedagogik talantga ega edim. Pedagogikaga kutilmaganda kirib keldim va o‘rgandim. Men o`z ishimning ustasi darajasida ko‘tarildim. O`z ishining ustasi darajasiga har bir intiluvchi pedagog erishishi mumkin.» Bunda unga yordam berishda o‘zi ustida ishlash asosiy rol o‘ynaydi.

Otto Yulyevich Shimit umrining har bir daqiqasidan sermahsul foydalanadi. Yerning va sayyoralarning paydo bo‘lishi nazariyasining asoschisi. U o‘z-o`zini tarbiyalash bilan shug‘ullanib, inson imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. A.A Lyubishev, shunday degan, inson uchun yomon, bo‘sh, ortiqcha vaqt bo‘lishi mumkin emas. U o`z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo‘rqmas edi.

K.D Ushinskiy o‘z-o`zini tarbiyalash orqali quydagilarga erishdi.

1) xotirjamlik

2) so‘zda ishonch va to‘g‘rilikka.

3) xatti-harakatga mulohaza bilan yondashish

4) qat’iylik

5) o‘zi haqida sababsiz biror og‘iz gapirmaslik.

6) lozim narsalardangina foydalanish.

7) har kuni kechasi o`ziga o‘zi hisobot berish.

8) biror marotaba maqtanmaslik.

Shuni aytish joizki, ko‘plab insonlar o`zining bebaho vaqtini bekorga o‘tkazib yuboradi. Inson o`z odatlarning bir xillik kun tartibi hukmronligi ta`siriga kirib, o`zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O‘z-o`zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o`zining qobiliyatlarini namoyon etishga erishish mumkin. O`zini tarbiyalashning psixologik sharoitlardan biri o‘z-o‘zidan norozilik bo‘lib, uni L.N. Tolstoy, «. . . Men telba, o‘zgalarga qizig‘i yo‘q, chidamsiz va bolalardek uyalchangman».

O‘z-o`zini tarbiyalash o`z faoliyatini tahlil qilishdan va o`z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi.O`qituvchi o`z ustida ishlashi, o‘z-o`zini tarbiyalashda quydagi uslublardan foydalanadi:

**O`z-o`zini bilish:**

a) o`zini kuzatish.

b) o`z harakatlarini tahlil etishi.

d) o`z-o`zini sinashi.

e) o`rtoqlarining fikrini tushuna olish

**O`ziga baho berish:**

a) o`zini kuzatish.

b) o`ziga xarakteristika berish.

d) o`z-o`zini taqdirlash.

O‘z-o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O`z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z-o`zini nazorat qilish uchun o`zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib

borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O‘z-o`zini baholash o`qituvchini, o`z imkoniyatlarini baholashda, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

O`qituvchi o`z-o`zini tarbiyalash bilan birga o`z ustida tinmay ishlab, o`zining g‘oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o‘stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi.

M.I.Kalinin o`qituvchilarga qarata shunday degan edi: «O`qituvchi o`zini butun kuch-quvvatini, imkonini, o‘zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o`z o‘quvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o‘rtoqlar, agar siz o‘zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o‘zingizda bunda o`z bilimlaringizni, o`z kuchingizni, o`z quvvatingizni yana va yana to‘ldirib bormasangiz, u holda o‘zingizda hech narsa qolmaydiku, axir. O`qituvchi, bir tomondan, o‘zida borini beradi, ikkinchi tomondan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi».

Ilg‘or o`qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o`qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o`z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o`z shaxsiy tajribalarini umumiylashtirishga harakat qiladi.

Agar shaxs izlansa, o`z qobiliyatlari ustida ishlasa, o‘zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro‘si, mavqei ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo‘ladi. O`qituvchi o‘zida kuzatuvchanlikni, g‘amxo‘rlikni tarbiyalashi lozim. O`qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o`qituvchi o‘zi o‘qib tursagina – o`qituvchi bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda o‘qituvchilik ham o‘ladi,

deb haqqoniy aytganlar.

Iroda va xarakterni shakllantirishda o‘z-o`zini tarbiyalash. O`qituvchilik faoliyatida o`qituvchi xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iroda, his-tuyg‘ularini boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. O`zini-o‘zi tarbiyalash ma`lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda: o`zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o`ziga

buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o`z qoidasiga ega bo‘lish.

L.N.Tolstoy o‘z-o`zini tarbiyalashda quyidagi qoidalarga amal qilar edi. Nima belgilasa hech narsaga qarmay tezkorlik bilan bajarar. Nimani bajarsa yaxshi bajar.

Doimo aqliy, o`z imkoniyati doirasi asosida faoliyat ko‘rsatishga harakat qilardi».

V. Shekspir shunday yozgan edi. «Uyqu ona tabiatining g‘aroyib, shirin taomidir tanavvul qilish me`yorini bilish lozim».

O`z-o`ziga buyruq berish, o‘z-o`zini tarbiyalashning muhim usullaridan biri. Masalan, A.Meresyev «Olg‘a, olg‘a chidash kerak!» . . .

U.G.Shuls faraziga ko‘ra o‘z-o`zini tarbiyalash programmasi (dasturi):

Bir kunlik yoki xaftalik ish rejasini tuzish, uni bajarish;

Umidsizlikka tushmaslik, kamchiliklarni bartaraf etish;

O`ziga, muvaffaqiyatga ishonish;

«Men o‘zimga ishonaman», «Men buni qilishni xohlayman», «Men qila olaman» kabi o‘z-o`zini ishontirish formulasini qo‘llash.

O`zini tarbiyalash:

Jiddiy, o‘ylab ish ko‘rish;

Ma`ruza, seminar darslarida e`tiborsizlikka berilmaslik;

«Men diqqat bilan eshityapman», «Mening diqqat e`tiborimda» formulasini qo‘llash.

O`z-o`ziga buyruq berish. «Pedagog fikrini kuzatib borish lozim».

O`ziga-o‘zi hisobot berish, kun yoki hafta yakunini qilish.

Xulosa, ma`lumki, jamiyat taraqqiyotida ta`lim-tarbiya, uning mazmunini, maqsad vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuzim ijtimoiy-iqtisodiy

siyosiy taraqqiyot o`z yo‘nalishini belgilashda yosh avtorga nimani o‘qitish kerak? Qanday o‘qitish lozim? Kimlarni o‘qitishi kerak? Kabi savollar jamiyat oldidagi ko‘ndalang qo‘yiladigan savollarga javob izlab kelingan. Mazkur savollarga javob topish, ya`ni ta`limni yangilash, uning tizimini, mazmunini qayta qurish, yangi holatga yo‘naltirish Respublikamizning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Albatta, bu yo‘nalish keng qamrovli, bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiruvchi jarayondir.

Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish, axloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi.

Yoshlarni talaba bo`lganiga qadar ota-onasi, maktab o`qituvchilari, qarindosh-urug‘i, mahalla-ko‘y nazorat qilib borsa, talaba bo‘lgandan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o‘zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarini egallagan holda o`zini-o‘zi tarbiyalay boshlashi kerak.

### Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

### Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar alohida-

alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanib, yangi bilimlarning o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi. Guruhli o`quvni tashkil etishda o`quvchilar faoliyati guruh-guruhlarga bo`linib olib boriladi. Interfaol ta`limda o`quv-biluv faoliyatni guruhlarda tashkil etishning o`ziga xosliklari mavjud. Bu shaklda sinfdagi o`quvchilar guruhlarga bo`linib, har bir guruhga aniq, alohida vazifalar beriladi. Har bir guruh alohida (ya’ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi. Topshiriq o`zaro muloqotga asoslanadi yoki biror yetakchi rahbarligida tashkil etiladi. Guruhlarda topshiriq shunday amalga oshiriladiki, mashg`ulot yakunida har bir ishtirokchi yoki guruh a’zosining qanchalik hissa qo`shganligi hisobga olinadi. Guruhlar tarkibi doimiy bo`lmasligi mumkin, ular shunday tartibda shakllantiriladiki, topshiriqni bajarishda har bir guruh a’zosiga o`zining maksimal hissasini qo`shish imkoniyati, muhiti yaratiladi. Guruhlar turli kattalikda shakllantirilishi mumkin. Odatda guruhlarda 4-6 nafar a’zo ishtirok etadi. Uning tarkibiga beriladigan topshiqlarning mazmuni va xarakteriga qarab o`zgartirishlar kiritilishi mumkin. Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko`nikmalariga ega bo`lgan o`quvchilarning bo`lishi kutilgan natijalar beradi. Guruhli o`quv-biluv ishlarini tashkil etishda ayrim o`quvchilarning individual yordamga muhtojliklari seziladi. Shunday vaziyatlarda o`qituvchi

tayyorgarlik darajasi yuqori bo`lmagan o`quvchilarga yordam berib borishi maqsadga muvoffiq. Guruhli o`quv-biluv faoliyati laboratoriya ishlari, amaliy mashg`ulotlar, tabiiy fanlardan tashkil etilgan amaliyot, nutq o`stirish mashg`ulotlari (dialog) matnlarni o`zlashtirish, tarixiy materiallarni o`rganish va mehnat darslarida juda qo`l keladi. Bu holatlarda guruhlarda o`zaro muloqot o`rnatish, mustaqil ishlash yaxshi natija beradi. Guruhli o`quv-biluv faoliyati yana o`quv-mavzuviy konferensiyalar, munozara, mushoira, debat, savol-javob, ma'lum mavzudagi kichik ma'ruzalar, qo`shimcha mashg`ulotlar, o`quv dasturlaridan tashqari mavzularni o`rganishda ham juda qo`l keladi. Bunday o`quv-biluv faoliyatida guruh a'zolari juda faollik ko`rsatadilar, o`z fikr, pozitsiyalarini himoya qilish ko`nikmalari shakllanadi. Guruhdagi hamkorlikda, kuchli o`quvchilar kuchsiz o`quvchiga yordam berish bilan ularni qo`llab quvvvatlaydi, guruhda ham ijodkorlik vujudga keladi. Guruhli o`quv-biluv faoliyatini tashkil etishda guruh a'zolari orasida vazifalar aniq taqsimlansa, o`zaro hamkorlik to`g`ri yo`lga qo`yilsa, samarali natijalar beradi.

O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini guruhli tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmog`i zarur:

- O`quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o`quv topshiriqlarini aniq qo`yish, guruhda ishlash bo`yicha tushuncha berish, reglament o`rnatish.

- O`quv topshiriqlarini bajarish bo`yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo`llarini aniqlash va ishni olib borish bo`yicha o`zaro vazifalarni taqsimlash.

- O`quv topshiriqlarini bajarish bo`yicha ishni tashkil eta olish. Guruhdagi ishni tashkil etishda ish jarayoni va a'zolar ish jarayonini kuzatish va zarur hollarda yordamga kelish.

-Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o`zaro tekshiruv va nazorat olib borishni yo`lga qo`yish.

-Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo`yicha axborot berish, sinfda munozaralar o`tkazish, ish jarayonining borishiga qo`shimcha va tuzatishlar kiritib

borish. O`qituvchi tomonidan ishning natijalari bo`yicha xulosalar chiqarish va yakun yasash. Har bir guruhning ish natijalariga, sinf ishiga tahliliy baholar berish.

Guruh ishining muvaffaqiyatli chiqishi o`qituvchining o`quv faoliyatini tashkil eta olish harakati, mahoratiga bog`liq. Ya'ni o`qituvchi guruhda ishtirok etayotgan har bir o`quvchining shaxsiy faoliyatini tashkil eta olishi, har bir o`quvchi o`qituvchi ko`magini olishi ishning borishi bilan pirovard natijani muvaffaqiyatli ko`rsata olishiga bog`liq. Guruhlar ishini o`quv biluv jarayonida tashkil etishda bir qator kamchiliklar sodir bo`lishi mumkin. Qiyinchiliklardan biri guruhlarni to`g`ri, maqsadli shakllantira olish va unda ishni tashkil eta olishdir. Guruhlarda ishlash jarayonida o`quvchilar ayrim qiyin topshiriqlar yechimini mustaqil yechishga qiynaladilar. Shu sababli guruhlarda ishni tashkil qilishda umumiy ishni tashkil etish bilan bir vaqtda individual ishlarni ham tashkil etishga to`g`ri keladi. Bunday hollarda ko`pincha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Umuman o`quv predmetlari bo`yicha beriladigan topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga qarab guruhda ijodiy muhit yaratiladi. Guruhlarda ishlash davrida o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi orasida o`zaro hamkorlik, o`zaro yordam muhiti o`rnatilsa, guruhlar ishi kutilgan natijalarni beradi.

**O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.**

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qish, tarbiya va dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. Ushbu metodni qo‘llash sinfning o‘quvchilarining umumiy yoki jamoa a’zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo‘llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O‘smirlar bilan ishlaganda ma’naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma’nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo‘llaniladi:

1. Yangi ma’naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

2. Tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o‘quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to‘g‘ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi. Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo‘lish yo‘llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?» va hokazolar)da o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba’zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o‘zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo‘lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

**Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari** muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari

tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi. O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

1)faoliyatda mashq qilish;

2)kun tartibi mashqlari;

3)maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

I. Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

II. Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir.

Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi hamda o‘quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur. Shundagina o‘quvchi o‘zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o‘z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o‘z o‘rniga ega. O‘qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O‘quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo‘lishga intilishiga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llaniladi.

## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar



### “BLITS-SO‘ROV” METODI

“Blits-so‘rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, ta`lim beruvchitomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, ta`lim oluvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

Ta`lim beruvchi o’rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, ta`lim oluvchilar e’tiboriga havola qiladi

Ta`lim oluvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo’nda, aniq javob beradi

Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar ta`lim oluvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi, (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim)

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash tartibi

Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati ta`lim oluvchi (talaba)lar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

**Quyida berilgan mavzuga oid tushunchalarni rus va ingliz tillarida izohlab, jadvalni to`ldiring.**

| № | **Tushuncha** (o`zbek tilida) | **Tushuncha** (rus tilida) | **Tushuncha** (ingliz tilida) |
|---|---|---|---|
| 1 | Tarbiya | | |
| 2 | O'quvchi | | |
| 3 | Imkoniyat | | |
| 4 | Tashabbuskorlik | | |
| 5 | Mustaqillik | | |
| 6 | Qadriyat | | |
| 7 | His-tuyg'u | | |
| 8 | An'ana | | |
| 9 | Xotirjamlik | | |
| 10 | Qat'iylik | | |

Masalan:

| № | **Tushuncha** (o`zbek tilida) | **Tushuncha** (rus tilida) | **Tushuncha** (ingliz tilida) |
|---|---|---|---|
| 1 | Bilim | знания, знание, познания, осведомленность, знакомство, эрудиция | knowledge |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Bilim | познание, знание, познавательная способность | cognition |
| 3 | Bilim | знание, понимание, осознание, знакомство | knowing |
| 4 | Bilim | наука, естественные науки, знание, техничность, умение, ловкость | science |
| 5 | Bilim | узнавание, знание, подсудность, компетенция, отличительный знак, юрисдикция | cognizance |




**Nazorat uchun savollar:**

1.A.S. Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida qanday fikr yuritgan?

2. “Inson uchun yomon, bo‘sh, ortiqcha vaqt bo‘lishi mumkin emas. U o`z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo‘rqmas edi” fikrning muallifi kim?

3.K.D Ushinskiy o‘z-o`zini tarbiyalash orqali nimalarga erishdi?

4. O‘z-o`zini tarbiyalash o`z faoliyatini tahlil qilishdan va o`z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi.O`qituvchi o`z ustida ishlashi, o‘z-o`zini tarbiyalashda qanday uslublardan foydalanadi?

5. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish deganda nimani tushundingiz?

6. Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari haqida nimalarni o‘rgandingiz?

7. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodini izohlang.

8. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlariga misol keltiring.

9. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning qanday turlari mavjud?

10. Turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradigan jarayonni nomlang.

## VI BOB. TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASASI INTEGRATSIYASI

**Reja:**

**6.1. Mahalla tarixi.**

**6.2. O‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatishda maktab, oila va mahalla hamkorligi.**

**6.3. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni.**

**Tayanch tushunchalar:** mahalla, oila, ma’naviy qadriyat, ta’lim, tarbiya, makatab, an’ana, his-tuyg‘u, milliy qadriyat, integratsiya,hamkorlik.



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar


1. I.A. Karimov A."Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent Ma’naviyat, 2008-yil.

2. R.A. Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 401-bet.

3. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.105-bet.

4. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma. T:.O‘qituvchi 2010-yil.307-bet.

5. R.A. Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.209-bet.

6. F.A. Norboyeva, S.A. Qurbonova Humanite Congress- International Multidisciplinary Virtual Conference Hosted From Lyon, France https://conferencepublication.com December 5th 2021 83 Oilada va maktabda bola shaxsini shakllantirish.

**Elektron ta'lim resurslari:**

**1.**w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

6.https://hikmatlar.uz/quote/775

**Mahallalar tarixi.** Mahallalar qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Odamlarni bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli qilib qo'yishda, o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvining birinchi bo'g'inlari, asosiy ustunlari sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Mahalla — yurtimizda asr-asrlar mobaynida shakllangan tamoman o'ziga xos, butunlay sharqona o'zini o'zi boshqarish tizimidir.

O'rta osiyo muhitida jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rar ekan, buni zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim. Azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning

boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov „Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch“ asarlarining birinchi bobidagi „Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar“ deb nomlangan faslida mahalla boshqaruvi, uning ma’naviyatimizni shakllantirishdagi o‘ziga xos o‘rni va mavqeyiga alohida to‘xtalib o‘tadilar. Bu asarda mahallaning azaldan milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgani aytilib, jumladan, shunday yoziladi: „Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz „Mahalla — ham ota, ham ona“ degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz“.

Shuningdek, muallif mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an’analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib borayotganini alohida qayd etadilar. „Mahalla“ tushunchasining Konstitutsiyamizga kiritilishi esa, yurtboshimiz tarafidan siyosatning

xalqchilligiga dalolat sifatida tilga olinadi, bunga „Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari“ degan tamoyilning amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Milliy tariximizga xolis baho berishga kirishdik. Bir vaqtlar hukmron mafkura badnom qilgan ne-ne zotlar nomi tiklandi. Bular orasida sohibqiron Amir Temur, buyuk avliyolarimiz — Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xo‘ja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy va boshqalar, buyuk islom olimlari — Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy va boshqalar, sho‘ro qatag‘oniga uchragan, asarlarni o‘rganish taqiqlab qo‘yilgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalar bor.

Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqelik, xususan, uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat xarakteri, ota- onaning axloqiy saviyasi ijtimoiy masalaga,

bolaning komil inson bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat tarbiyasi hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi professional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo‘lgan ana shu tarbiya, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash, asosan, maktabning o‘rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi boshlang‘ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog‘liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak qadrlanishini, mehnatdan qochadigan axloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash, umuman, aqlli, zukko odamga to‘g‘ri kelmasligini maktabdan, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasini oilada ham muvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko‘p. Bolaninng boshlang‘ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida xizmat qiladi. Bolalar artofidagi „mehnat“ni ko‘rib tursa ham mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunda ota-onalar o‘ylab, ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rishlari lozim. Masalan, bolalarni mustaqillikka o‘rgatishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko‘rsatib berish lozim. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz holda yechib tashlamasdan, aksincha, maxsus kiyim ilgichga ilishga odatlanishlari zarur. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab, mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hi- soblanadi.

## O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi vazifalari.

Bolalarga ta’lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo‘lmish mahallaning vazifalari:

— mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda, oqilona yechimlarni topishda faollik ko‘rsatishi;

— mahalla o‘z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo‘lishi;

— ma’nan nosog‘lom oilalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, jamoatchilik choralarini ko‘rishi;

— mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy yordam ko‘rsatilishini qo‘llab-quvvatlashi;

— ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalminallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag‘batlantirishi;

— mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san’atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va „Usta-shogird“ rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilishi;

— mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari tashkil qilishi;

— har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, obodonchiligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirishi.

## O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari:

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis to monidan qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya’ni:

— maktabda bolaga biror-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam

poydevor yaratish;

— o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish;

— bolalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv- tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta’minlash:

— o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslariga yo‘naltirish va ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta’minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta’lim olishlariga, tanlagan kasblari bo‘yicha ish bilan ta’minlashlariga, iqtisodiy mustaqil bo‘lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to‘la shakllantirish, mustaqil oila ko‘rishga tayyorlash.

**Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda sinf rahbarining vazifalari**

Hozirgi davr maktabdagi o‘quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo‘ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, g‘oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilishi, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarini tashkil etadi va boshqaradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg‘iz o‘zi emas, balki shu sinfda dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o‘quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqish va qobilyatini o‘stirish, har bir o‘quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o‘quvchining sog‘lig‘ini mustahkamlashga ham alohida e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o‘quvchilarning darsni yuqori o‘zlashtirishlarini ta’minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o‘quvchining kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o‘quvchilarning oz-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o‘z sinfining faol qatnashishini ta’minlaydi.

5. Sinf o‘quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchilarga nisbatan yagona talablar o‘rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o‘z sinfidagi turli hujjatlarini: sinf jurnali, o‘quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma’lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo‘yiladigan talablar o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andaza oladigan shaxs bo‘lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o‘ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo, tarbiyachining g‘oyaviy

ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog‘liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam egallab borishi bilan o‘zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘tkazadi. Chunki tarbiyachilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon-dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipohlik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo‘shilsa, ishda muvaffaqiyat ta’minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o‘zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo‘lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko‘pchiligiga asosiy sabab bolaning oldiga qo‘yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo‘lavermasligidadir.

Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishi, ro‘y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog‘lab baholashgina emas, balki ro‘y berishning sababiga qarab hukm chiqarish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o‘lchovi, chegarasi yo‘q. Uning bilmagan ishi, uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo‘lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg‘araz, xolis shaxs bolib, jamoatchihlik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va

o‘quvchilarni o‘zaro bog‘lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtayi nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o‘zaro aloqalarning to‘g‘ri bo‘lishiga ta’sir o‘tkazishi va ayni vaqtda, o‘zining o‘rnini aniq ta’minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta’minlashga garov bo‘ladi. Sinf rahbari o‘quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g‘amxo‘rlik qilib boradi. Hatto o‘zlashtirish yuqori bo‘lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni o‘stirishga, ta’lim sifatini oshirishga harakat qilishi zarur.

Ayrim maktablarda yuqori o‘zlashtirishga erishish o‘quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga bog‘liq bo‘ladi. O‘qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to‘g‘ri va bevosita sinfda o‘zlashtirishni ko‘tarishga ta’sir etadi. Sinf rahbari o‘qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning o‘qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o‘z sinfidagi o‘quvchilar bilan birgalikda sinfda o‘quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori sinflarda yuqori o‘zlashtirish uchun kurash susaymaydi, aksincha, u yana ko‘proq ahamiyat kasb etib boradi.

## O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi:

**Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni**. O‘zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o‘z tarkibiga mahallalar faollari, obro‘li ota-onalardan, o‘quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib o‘z tarkibida turli yo‘nalishlarda faoliyat

ko‘rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarni tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma’ lum bir muddatga mo‘ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig‘inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo‘ladi. Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biror-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog‘lom turmush tarziga yetaklovchi ko‘rik-tanlovlar, musobaqa, bellashuv, uchrashuvlar va turli sanalarga bag‘ishlangan anjumanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o‘z faoliyati to‘g‘risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta’lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to‘g‘risida hisobotlarni tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o‘z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma’muriy choralarni qo‘llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biror-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig‘inlari, o‘quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o‘tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o‘zbek milliy tarbiya an’anlarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o‘tkazish, bolalar va kattalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o‘yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o‘smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Kengash o‘tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta’minlaydi. Yuqorida

aytilganidek, ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi va o‘zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi. Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o‘z vaqtida payqab, ulardan iste’dodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan faxrlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi.

Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli o‘qishiga yaxshi zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ota- onalar shuni unutmasliklari kerakki, maktabda ham bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi, mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari o‘tiladi. Mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘g‘il-qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e’zozlash, uning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning, kattalarning ibrati bolalar uchun o‘rnak bo‘lishi kerak.

Zero quyidagi fikrdan bu masalaning har davrda naqadar dolzarbligini bilish mumkin “Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir”,-A.Avloniy.[4]

Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich nuqtasi oila hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risi“dagi Qonunining 5- bob 30- moddasida ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan: “Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning

[4] https://hikmatlar.uz/quote/774

qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, maxsus, kasb-hunar ta’limini olishlari uchun javobgardir”.

Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-ona, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his etishlari lozim. Jamiyatimiz uchun yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislarni tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo‘naltirish ishlarini takomil-lashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. O‘quvchi maktabda ta’lim tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakllana boradi. O‘zining jamiyatdagi o‘rnini sinfdoshlari, qolaversa, murabbiy, mahalladagi ilg‘or hunarmandlar bilan taqqoslay boshlaydi. O‘zidagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o‘zgalar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta’limi o‘qituvchilari kasb-hunarga yo‘llash sohasidagi dastlabki ma’lumotlarni bera boshlashlari lozim. O‘quvchilarning o‘zlari uchun munosib kasblar tanlashlarida ota-onalarning roli alohida o‘rin tutadi. Sinf rahbari, maktab ruhshunosi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis va maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o‘quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berishlari lozim. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o‘z farzandlari haqida fikrlarini bilish kerak.

Pedagogik faoliyatimiz va tajriba-sinov ishlarimiz natijasida umumta’lim maktablarida xalqimizning milliy, tarixiy an’analaridan, qadriyatlaridan foydalanish darajasini va saviyasini aniqlashimiz uchun mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish faqat ijobiy natija beradi. Ma’lumki, mahallalarda hunarmandchilik texnika rivoji bilan birgalikda takomillasha bordi va turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o‘ymakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunikasozlik

kabilar ajraldi. Mahallalarda ochilgan bunday hunarmandchilik shoxobchalariga bolalarni qiziqtirish, maktab, oila, mahalla hamkorlikda, hunarmandchilikka oid koʻrgazmalar tashkil etish, ushbu tanlovda ishtirok etgan oʻquvchilar mehnatiga ijobiy baho berish oʻquvchilarning oʻsha kasbni egallashlari uchun aniq manba boʻlib xizmat qiladi. Qadimgi manbalarda aks ettirilgandek, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xiva va Qoʻqon shaharlarida me'morchilik, quruvchilik inshootlari keng rivojlangan. Shu bois hunar va kasb haqida mahalla oqsoqollari, momolar ham oʻzlarining hayotlarini farovon oʻtkazishlarida oʻrgangan hunarlari foyda berganini ta'kidlashadi. Maktab, oila, mahalla hamkorlikda mehnat ta'limi avlodni mehnat qilishga tayyorlashni shakllantirish, kelajagi buyuk davlat qurishda amaliy ishtirok etishga intilish koʻnikmasini tarkib toptiradi. Barchamizga ma'lumki, yosh oʻquvchilar qaysi ustoz shirinsoʻz, yaxshi muomalada boʻlsa, bola qalbiga yoʻl topa olsa, unga bogʻlangan holda oʻsha kasbga boʻlgan qiziqishi ortadi. Oʻz kasbiga fidoyi boʻlgan har bir oʻqituvchi oʻzining tarbiyalayotgan oʻquvchisining kelajagiga bafarq boʻla olmaydi.

## Oilada va maktabda bola shaxsini shakllantirish.

*"Tarbiyani tug`ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim"*,- A.Avloniy.

Bundan kelib chiqadiki tarbiyaning eng chuqur ildizi bu oila demakdir.

*"Oilaviy baxtda hikmat koʻp. Baxtiyor oila eng birinchi va eng kuchli tarbiya oʻchogʻi , demak, yoshlarimizning tolei, ertangi saodatli kishilar jamiyatimizning poydevoridir"*A.Qahhor. Bola shaxsini shakllantirishda oilaviy tarbiya asosiy mezon sanaladi.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun oʻsish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Rivojlanish va tarbiya oʻrtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Oʻzbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati toʻgʻrisida shunday deydi: *«Bola tugʻilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng*

*muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi»*[5]. Bu o‘rnida ilgari surilayotgan pedagogik g‘oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog‘liqdir.

Yangi o‘tkazilgan niholning to‘g‘ri yohud egri o‘sishi bog‘bon mehnati va mahoratiga bog‘liqdir. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘yilmasa, u noto‘g‘ri rivojlanadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir tabiiy o‘xshashlik mavjud. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o`qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustahkam bog‘lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlami muvaffaqiyatli amalga oshirib bo`lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o`rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o`quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan ota-onalarning o`ziga va bolalariga bo`lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o`zaro munosabatlari, do`stona muhit, ishonch va o`zaro bir-birlarini tushunish muhim omillaridir. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan to`g`ri bo`lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o`rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid tarog‘ibotning, roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy-ta’lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo`lga qo`yib bo`lmaydi. O`qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu

[5] . I. A. Karimov A."Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent Ma’naviyat, 2008-yil.

o`rinda tarbiyachining o`zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O`ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o`quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo`yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo`ladi. Ayrim maktablarda ota-onalarni ma'lum guruhlarga bo`lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalarni alohida, noto`liq oilalarni, ko`p bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yo`llari belgilanmoqda. Maktabni oila bilan bog`lovchi vosita - bu o`quvchilardir. O‘quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko`rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi, ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo`lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo‘lmaydi. Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimini oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma'ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o`zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o`qituvchining tutgan o`rni, ularga ta'sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”. Sh.M. Mirziyoyev.

## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**FSMU**



**FIKR, MULOHAZA, ISBOT**

**F– Fikringizni bayon eting**

- **S – Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating**
- **M – Fikringizga misol keltiring**
- **U–Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang**

## "VENN DIAGRAMMASI" GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer ta`lim oluvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi




1-rasm. "Venn diagrammasi" grafik organayzerini yozuv taxtasidagi sxema

Grafik organayzer ta’lim oluvchi (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

**Uni qo‘llash bosqichi quyidagilardan iborat:**




2-rasm. Grafik organayzerlarni qo’llash bosqichlari

Grafik organayzerni qo‘llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. Ta`lim oluvchi (talaba)larning e’tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

| Guruhlar | Diagrammaning tartib raqami | Topshiriqlar mazmuni |
|---|---|---|
| 1-guruh | 1-diagramma | |
| | 2-diagramma | |

| | | |
|---|---|---|
| | 3-diagramma | |
| 2-guruh | 1-diagramma | |
| | 2-diagramma | |
| | 3-diagramma | |
| 3-guruh | 1-diagramma | |
| | 2-diagramma | |
| | 3-diagramma | |
| 4-guruh | 1-diagramma | |
| | 2-diagramma | |
| | 3-diagramma | |

1-jadval. Grafik organayzerni qo'llash jarayonida mavzuga oid topshiriqlarni bajaradigan jadval namunasi

1.„Ta'lim to'g'risi" dagi qonunining 5- bob 30- moddasida ota-onalar yoki qonuniy vakillarning ko'rsatilgan vazifalarini ayting.

2. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi haqida fikr yuriting.

3. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda sinf rahbarining vazifalari nimalardan iborat?

4.O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari nimalardan iborat?

5. Pedagogning o'z ustida ishlash modelini izohlang.

**6. Mahallaning paydo bo'lish tarixi haqida nimalarni o'rgandingiz?**

**7. Oilada va maktabda bola shaxsini shakllantirish xususida mustaqil fikr yuriting.**

**8. Boshlang‘ich ta’lim sharoitida oila va maktab o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yana qanday tashkillashtirish mumkin? Mustaqil fikrlang.**

9. Bolalarga ta’lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo‘lmish mahallaning vazifalari nimalardan iborat?

10. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov „Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch“ asarlarining birinchi bobidagi qaysi faslida mahalla boshqaruvi, uning ma’naviyatimizni shakllantirishdagi o‘ziga xos o‘rni va mavqeyiga alohida to‘xtalib o‘tadilar?

## VII BOB. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalar

**Reja:**

7.1. Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalar.

7.2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya.

7.3. Ilg‘or xorijiy ta’lim tizimi.

**Tayanch tushunchalar:** Ilg‘or xorijiy tajriba, ta’lim samaradorligi, ta’lim tizimi, AQSh pedagogikasi,Germaniya, Yaponiya ta’lim tizimi.



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar


1. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2010 y.332-bet.

2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O‘qituvchi nashryoti. 2021-yil.166-bet.

3. Istamova N. va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.98-bet.

4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.77-bet.

5. Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil. 234-bet.

6. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil **.101-bet.**

**Elektron ta’lim resurslari:**

**1.**w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

**Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalar.** Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta’limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlarning asosi bo‘lib oxirgi uch, o‘n yillikda pedagogik ta’lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo‘ldi. [8](A.A.Abdulina, Ye.V.Bondarevskaya, V.I. Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slastenin va b.q) Pedagogik ta’lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo‘nalishli ta’lim sohasidagi ishlanmalarni, ta’limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta’limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o‘z-o‘zini faoliyatini yo‘lga qo‘yadi va buning uchun ta’lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yosh davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo‘lga qo‘yish uchun muhim bosqich davri

hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g‘oyasi pedagogik sub’ektivlikni rivojlanishi bilan bog‘liq: talaba “o‘rganuvchi”, “o‘quvchi”, “o‘qitadigan” pozitsiya orqali o‘tadi. Agar oliy o‘quv yurti “o‘qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo‘lish maydoni”(D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta’lim olayotgan talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o‘zini qayta qurish sub’yekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi. O‘qituvchi faoliyati ham o‘zgaradi: “usta” ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi “maslahatchi” pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko‘ra integrativ ta’lim texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib qoladi. Ushbu masalada ta’limni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada yetakchilik qilmog‘i zarur. Bundan tashqari oliy ta’limda har bir fanlarni o‘qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanishlari kerak. Pedagogik ta’lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to‘xtalish kerakligi e’tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko‘p bosqichli va ko‘p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta’lim sifatida qaralib, ular o‘zlarining jilg‘alariga ega bo‘lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy holatlar bilan bevosita bog‘liq. Kichik darajadagi tizim – bu oliy ta’limdagi an’anaviy tizim hisoblanib, u qat’iy hisoblanib, bunda tor mutaxassislar tayyorlanib, ta’lim jarayonida o‘qitish variantlarini tanlash imkoniyati mavjud emas. Ko‘p bosqichli tizimda o‘rta maxsus ta’lim tizimi asosida oliy ta’lim olish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, o‘zaro bog‘lovchi o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim ixcham hisoblanib, bitiruvchilarni uchinchi kursga qabul qilish bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kelib chiqadi: qaysi mablag‘ asosida o‘qitish, birinchi o‘rinda pedagogika bilim yurti va pedagogika kollejlarida talabalarni egallagan bilimlari

sifati masalasi turlicha gumon uyg‘otadi. 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimi yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O‘zbekiston Respublikasi sharoitida o‘zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta’limning o‘ziga xos ko‘p bosqichli tizimi yaratildi. Oliy pedagogik ta’limni ko‘p bosqichli mazmuni bizning sharoitimizda ikki darajali model:

- umumiy (bazaviy-bakalaviriat va to‘liq (magistratura) ko‘rinishida amalga oshirilib, har biri o‘ziga avtonom hisoblanadi;
- yaxlit tizim ko‘rinishiga ega; bozor iqtisodiyoti talablariga to‘la javob beradi;
- ta’limni ko‘pgina yo‘llari orqali egallash imkonini beradi;
- o‘qiyotganlarni akademik va kasbiy yo‘naltirishga rag‘batlantiradi;
- o‘z-o‘zini anglash, uning qimmatli yo‘nalishlarini va hayot tarzini belgilash asosida shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi. O‘qitish asosiga ta’limiy-kasbiy dasturlar qo‘yilgan bo‘lib, ular beshta blok-model prinsipidan tashkil topgan:
- ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari hamda qo‘shimcha fanlar tizimidan iborat. Texnologik jihatidan kasbiy ta’limning mazmuni, metodlari va metodikasini tanlashga madaniy yondashuv bilan bevosita bog‘liq.
- Ushbu dasturlarni ishlab chiqilishida har bir blokning vazifasi, bloklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tashkiliy, didaktik-texnologik ishlar va malakali mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, fakultetlarda oliy ta’limdagi ko‘p bosqichli tizim (OTKT) asosida ishlash va an’anaviy tizim bilan ishlash qiyosiy taqqoslab ko‘rilganda, talabalar (OTKT) yangicha ta’lim tizimida ongli, ijodiy ishlashga ko‘proq e’tibor qaratgani, talabalarda ta’lim motivatsiyasi

darajasi yuqori ekanligi ko‘zga tashlanadi. Oliy ta’limni fakultetlari va kafedralarida tuzilmaviy-funksional va mazmunli-texnologik qayta qurish amalga oshiriladi. Umuman olganda oliy ta’limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to‘plandi, o‘quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida sub’yekt-sub’yekt munosabatlari rivojlanishida o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini kuzatish mumkin. Ushbu tizim orqali talabalarni mustaqil ishlashga ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta’minlansa, ikkinchi tomondan pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o‘sib borishi kuzatiladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo‘lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlarni insonning o‘zini o‘zgartirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari yetakchi o‘ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta’lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o‘qitish usullari va metodlari ma’nan eskirib, ta’limning ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Qadimgi ajdodlarimiz olamning murakkab tabiiy jarayonlarini o‘rganib borar ekan, insonni, uning ma’naviy-axloqiy kamolotini olamdan tashqarida emas, balki shu olamning ichida deb qaraydilar. Ularning fikricha, odam – olam ichidagi kichik olam bo‘lib, unda katta olam (olami Kubro) ning barcha xususiyatlari o‘z aksini topgandir. Bu hol olamni to‘la tasavvur qilishdan oldin odamni, inson olamini yaxshi bilishni taqozo etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarida insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryoqlamalikka berilib ketish kuzga tashlanadi.

Ta`lim - tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a`zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda o‘rta ta`limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta`lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo‘llash, ta`limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir.

**Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya.** Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta`limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta`sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e`tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta`minlashga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yildan yilga - oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo‘lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e`tiqodga aylangan. Ta`lim to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat – e’tiborida bo‘lgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta`lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta`lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko‘pchilikning faoliyati o‘quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. Maktab dasturlarini o‘zgartirish ikki asosiy yo‘nalishda: ekstensiv va intensiv yo‘l bilan amalga oshiriladi.Birinchi holatda o‘quv muddati uzaytiriladi, o‘quv materiallari hajmi

ko‘paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o‘rinda ikkinchi yo‘l, ko‘pchilik mutaxassislarning e`tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o‘rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to‘rt yil), matematika (to‘rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo‘nalishdagi majburiy ta`lim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarida majburiy ta`lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta`limning boshqa turlari esa ihtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo‘ldi. Amerikadagi ko‘zga ko‘ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O‘quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G‘arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta`lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o‘quv rejasi va dasturini ta`lim muassasalarining o‘zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o‘quv soatlari o‘qitilishi shart bo‘lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O‘quv soatlarining boshqa qismi esa o‘qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi. 80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o‘rganilishi majburiy bo‘lgan fanlar doirasi kengaytirildi.Ingliz tili va adabiyoti matematika va tabiiy fanlar o‘quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo‘ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o‘quvchilar va ota- onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik g‘oyalari Fransiya va Germaniya ta`limiga ham sezilarli ta`sir etayotir. Germaniya to‘liqsiz o‘rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o‘quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o‘quv dasturi tobora to‘liqsiz o‘rta maktab doirasida chiqib, o‘rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda. Fransiya boshlang‘ich maktablarida ta`lim

mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta`limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo‘linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta`limi yo‘lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o‘quv dasturida qator farqlar ko‘zga tashlanadi. Yaponiyada o‘quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o‘quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta`limni bir xil milliy me`yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta`lim tuzilmasini yangi me`yorga va o‘lchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta`lim tizimiga o‘tkazib o‘qishdan iborat. Ammo, buning ham o‘ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag‘ masalasi bo‘lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta`lim jarayoni qatnashchilarining bu o‘zgarishga munosabatidir. Germaniyada ta`lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo‘shib kelmoqda. Maktabgacha tarbiya Germaniya ta`lim tizimida muhim bosqich hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Germaniyada bolalar bog‘chalari ta`limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta`lim tizimi tarkibiga kirmaydi. Eski yerlardagi (sobiq GDR ga kirmagan yerlar) 24000 dan ortiq bog‘chalarni mablag‘ bilan ta`minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80 foizi bolalar bog‘chasiga qatnaydi. Bog‘chalarda ta`lim tabaqalashtirib olib boriladi. Germaniyada bolalar bog‘chalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Kuni uzaytirilgan guruhlar ham mavjud.

Majburiy ta`lim 6 yoshdan 18 yoshgasha bo‘lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba`zi bir yerlarda 10 yil)

maktabda to‘la haftalik o‘qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to‘la bo‘lmagan haftalik o‘qishida o‘qiydilar. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam. Boshlang‘ish maktab. O‘qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o‘qish davomida bolalarga baho qo‘yilmaydi. Boshlang‘ish maktabda 4 yillik o‘qishdan keyin o‘quvshilar yo‘nalish bosqishidagi maktabga o‘tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo‘nalish maktab tipiga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan holda maxsus dastur asosida o‘qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Hunar ta`limi Germaniya ta`lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabning kuchliligidir. To‘liqsiz o‘rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to‘liq o‘rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta`limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta`limi tizimi turli tipdagi o‘quv yurtlari va o‘qitishning turli shakllariga ega. Eng ko‘p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta`limining ―Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to‘liq o‘rta maktablarning 16 foizi o‘qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o‘rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o‘quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta`lim muassasalarining xususiylari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo‘ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta`lim federatsiyasi boshqaradi. Oliy maktab o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o‘z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko‘pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o‘z-o‘zini boshqaradilar. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o‘qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun

imtihon topshiriladi. Ta`lim sohasidagi siyosat aholining ko‘plab qatlami uchun oliy o‘quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o‘quv yurtlarida chet elliklar o‘qishidan manfaatdordir. 1991 yili ular 76000 ni tashkil etgan. Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o`rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta’limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini taminlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o`quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o`rgatish va shunga xos kasbga yo`naltirishdan iborat. Boshlang‘ich sinflardagi o`qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo`linadi.

Fransiyada boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo`lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta’limiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta’lim uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy sanat va sport. O`quvchilar 11yoshda boshlang‘ich maktabni tugallab o`rta maktabga o`tadilar.

Fransiyada oliy ta’lim professional ta’lim berish keyingi 20 yil davomida qaror topdi. Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Fransiya ta’lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko`zda tutilmagan. Biroq maktablarda va liseylarda turli to`garaklar mavjud. O`quvchilar uchun turli sport seksiyalari sayohatlar, musobaqalar o`quv muassasasining o`zida tashkil etiladi.Fransuz yoshlari, Fransiyaga bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma’lumot oladilar:

Universitetlar;

Oliy texnologiya maktablari;

Oliy muhandislik maktablari;

Oliy arxitektura maktablari;

Oliy tijorat maktablari;

Siyosiy fanlar oliy maktabi;

Oliy pedagogik va filologiya bilimgohlari;

Oliy tibbiyot o`quv muassasalari;

Oliy badiiy maktablar;

Uzluksiz ta'lim (malaka oshirish)

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnalogik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko`rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O`qish muddati 2 yil bo`lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O`qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko`zda tutilgan.

Fransiyada mingdan ortiq ana shunday insitutlar faoliyat ko`rsatib, qishloq ho`jaligi ishlab chiqarishi, san'at, informatika, ma'muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san'at bo`yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday insitutlarga kirish imtixonsiz amalga oshiriladi.

**Ilg'or xorijiy ta'lim tizimi.**

## GERMANIYADA MAKTAB VA OLIY TA'LIM

Ta'kidlab o`tish lozimki, Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`li bizning Respublikamizdagiga o`xshab ketadi. Jahonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga katta hissa qo`shib kelayotgan dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ichida kuchli davlatlar qatoriga kirgan Germaniyada ham ta'lim tizimi o`z rivojlanish bosqichiga ega. Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning yuz yildan ortiq tarixi mavjud. Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan bolalar uchun. O`qitish davlat maktablarida tekin, o`quvchilar darslik va o`quv qo`llanmalari bilan tekin ta'minlanadi. Germaniyada maktab ta'limi qanday qurilgan va o`qitish

faoliyati qanday tartibda tashkil etiladi? Boshlang‘ich maktabda to`la to`rt yillik o`qishdan keyin o`quvchilar yo`nalish asosidagi maktablarda ta’limni davom ettiradilar. Asosiy maktab dasturi yilma –yil tahlil etib boriladi. Germaniyada o`z vaqtida ta’lim ola olmagan katta yoshdagilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratib qo`yilgan. Kechki gimnaziyada sanoat, qishloq xo`jaligi kabi sohalarda ishlovchilar 3-6 yil davomida o`quv ko`rsini o`taganidan keyin etuklik attestatini olish uchun imtixon topshiradilar. Germaniyada hunar ta’lim tizimi katta ahamiyatga ega chunki, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo`lgan talab yuqori hisoblanadi. Germaniya ta’lim tizimining o`ziga xos tomonlaridan yana biri hunar diplomlari oliy o`quv yurtlariga kirib o`qish huquqini bermaydi. O`qishga qabul qilish imtixonsiz maktab ta’limi to`g‘risidagi hujjatga asoslangan holda amalga oshiriladi. Oliy o`quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan prezident boshqaradi. Oliy o`quv yurtlarida tatqiqotning asosiy yo`nalishi fundamental amaliy tadqiqot bo`lib, ularga boshqa ilmiy tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarining xususiylari, cherkov va bundesverga tegishlilaridan tashqari bo`lgan oliy o`quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo`ladilar. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta’lim federatsiyasi boshqaradi. Federatsiya oliy ta’lim tizimiga taalluqli umumiy prinsplarni tartibga solib turadi. Jumladan, federasiya oliy o`quv yurti qurilishi va oliy o`quv yurtidagi tadqiqotlarning bir qismini mablag‘ bilan ta’minlashni o`z ustiga oladi. Oliy maktab o`z-o`zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o`z ustavlarini qabul qiladilar.

**Agar biz AQSh pedagogikasidagi:**

-bolani o`z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;

-o`quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish uchun kurash;

-bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik;

-Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k.

**Yaponiya ta'limidagi:**

-bolani maktabga puxta tayyorlash;

-kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;

-o`quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;

-o`qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;

-yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar;

**Germaniya ta'limidagi:**

-tabaqalashtirib o`qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;

-o`qituvchilarning mehnat ta'limini mustahkamlash;

-kasbga yo`naltirish;

**Fransiya ta'limidagi :**

-maktabgacha davridanoq o`quvni predmetlashtirib tashkil etish;

- boshlang'ich ta'limni uch bosqichda puxta amalga oshirish;

- o`quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor;

- o`quv muassasalarning turli firmalar, konsernlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham ko'chsa, bizning pedagogikamiz olg'a qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi.

Tabaqalashtirilgan va individual ta`lim texnologiyasi G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo`lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo`lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o 'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi. O'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi N.P.Guzik. «O'qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va

darslarda mavzu bo‘yicha davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sinf ichidagi o‘qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo‘yicha ketma ket joylashgan besh tipdan iborat bo`ladi:

1) mavzuni umumiy tahlii qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);

2) ta ’lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o ‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘zda tutgan, tuzilgan seminar mashg‘ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);

3) bilimlami umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);

4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalami himoya qilish);

5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilaming saviyalariga ko‘ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalami nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: «A»,«V»,«S» dasturlari ajralib turadi. Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

• muayyan darajadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi;

• ta`lim oluvchilarning ma`lum darajadagi mustaqilligini ta’minlaydi; «S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta’lim oluvchilar fan bo‘yicha o‘quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o‘zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o‘tmasdan oldin har bir o‘quvchi bajara olishi lozim. «V» dasturi mavzuni qo`llash bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan o ‘quv va aqliy faoliyatining umumiy va o‘ziga xos usullari bilan birga egallashni ta’minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo‘shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi,

asosiy bilimlami isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo‘llanishini ko‘rsatib turadi. «A» dasturi o ‘quvchilarning bilimlarini to‘la anglash, ijodiy qo`llash darajasiga ko‘taradi. Bu dasturda ijodiy qo‘llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan. Tabaqalashtirilgan ta`limda materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash metodikasi qo‘llanadi. Tabaqalashtirilgan vazifalami nazorat qilishda individuallikka o‘tiladi va u chuqurlashtiriladi. Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:

| |
|---|
| • Pedagog faqat birgina talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi; |
| • Bir talaba faqat o‘qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o`zaro aloqada bo`ladi. Individual o‘qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi. |

**Shaxsiy yondashish deganda:**

| |
|---|
| • Pedagogikaning tamoyili bo`lib, unga ko`ra pedagog o`quv— tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo‘yicha o‘zaro munosabatda bolish hamda individual xususiyatlarga asoslanish; |
| • O‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish; |
| • Barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik—pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi. |

**O‘qitishni individuallashtirish:**

| |
|---|
| • O‘quv jarayonini tashkil etish bo`lib, unda o‘qitish usullari, sur`atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog‘lanadi; |

•Individual yondashuvni ta’minlovchi turli o`quv-metodik, psixologik pedagogik va tashkiliy-ma`muriy tadbirlardir. Shunday qilib, didaktika bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlaiga ko‘ra o‘qitishni individuallashtirish o‘quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O‘qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnalogiyalarida asoslab berildi:

• Inge Untning o`qitishni individuallashtirish texnologiyasi;

• A.S. Gransikayaning moslashuvchan oiqitish texnologiyasi;

• V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida oiqitish texnologiyasi.

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnalogiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o‘qitishni individuallashtirishning muhim shakli o‘quvchilaming maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o‘quv vazifalari, joriy o‘quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo‘llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S.Graniskaya o‘zining moslashuvchan o‘qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o‘qituvchi 60-80% vaqtini o‘quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Graniskaya metodikasining o‘ziga xosligi uning darsni muayyan g‘ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

• Birinchi qism — barchani o‘qitish;

• Ikkinchi qism — ikki parallel jarayon: oluvchilarning mustaqil ishlari va o‘qituvchining ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlashi, ya’ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o‘qituvchi bo‘lib ishlash, moslashuvchan ko‘p qirrali vazifalar va b.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko‘ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o‘rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o‘quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab o‘qitishga imkon beradigan olti darajadagi o‘quv rejasi, dastur va metodik qo‘llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko‘ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o‘quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo‘ldan chiqarmay birgalikda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi va «ba'zan» uni amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki u sinfdagi o‘quvchilarning tenglashish, qobiliyati holatiga bog‘liq bo‘ladi. Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga e’tibor berishga, barchaning kuchi yetadigan hamda o‘quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Bu o‘qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

• individuallashtirish o‘qitish jarayoni strategiyasidir;

• individuallashtirish—individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;

• barcha o‘rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o‘qitishdan foydalanishning mumkinligi;

• individual ishlarni o`quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integrasiyalash;

• individual suratda, uslubda o‘rganish.

Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

| |
|---|
| • O‘zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish; |
| • Fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallash asnosida |

| |
|---|
| individual kamchiliklarni tuzata olish usullari; |
| • Oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo‘linmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish; |
| • Qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarga nisbatan o‘quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlarni hisobga olish); |
| • O‘qitish jarayonini tanlash erkinligini berish; |
| • Umumiy o‘quv malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish; |
| • Oluvchilarning o‘z-o‘ziga mos baho bera olishini shakllantirish; |
| • O‘qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish. |

O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi

Batov tizimi AQShda ishlab chiqilgan bo`lib, u o‘quv jarayoni ikki qismga bo‘linadi:

Birinchi qism- butunicha sinf ishi.

Ikkinchi qism- individual mashg‘ulotlar.

Bunday mashg‘ulotlar unga zaruriyat sezgan o‘quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me’yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo‘lishini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi. Yuqori qobiliyatli kategoriya o‘quvchilar bilan o‘qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o‘quvchilar bilan o‘qituvchi yordamchisi shug‘ullanadi.

Tramp rejasi - bu texnologiya AQShda juda mashhur. Bu o‘qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg‘ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib boriladi. Tramp rejasiga ko`ra zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o‘qituvchilar, professorlar leksiya o‘qiydilar. 10 - 15 kishidan iborat kichik guruhlar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar,

bahs yuritadilar. Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida o‘tkaziladi. Leksiya mashg‘ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg‘ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga esa 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo‘q, kichik guruhlar ham doimiy emas

Albatta, ta’limga har qanday yangilik, o`zgarish jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. “Zo`rlab tiqishtirish” bizning uslubiyat emas. Ayni paytda ta’limni bir saviyada qotib qolishiga ham yo`l qo`yib bo`lmaydi. Keyingi paytlarda ilmiy asoslanmagan, sinab ko`rilmagan “Islohotlar” ni joriy etish, yangi o`quv muassasalari to`g‘risida ham ta’lim vazirligi tasdiqlagan Nizomdan chetga chiqish hollari ro`y bermoqda, aksariyat shunday “isloh” qilingan maktablar, sinflar ko`zlagan samaradorlikni bermaganligi uchun oddiy maktablar va sinflarga aylantirilmoqda.

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar**



**6 Shlyapa metodi**



De Bono 6 shlyapalar usuli (De Bono 6 hats thinking) Aqliy hujumda g‘oyalarni samarali shakllantirish va hosil bo‘lgan g‘oyalarni texnik-iqtisodiy tekshirish uchun yana bir usul - bu De Bono 6 shlyapalar usuli. Metod butunlay yangi g‘oyalarni olish uchun unchalik mos emas, shuning uchun uni yanada ko‘proq ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan bir nechta g‘oyalar uchun Disney usuli kabi foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu usul biznes-rejani keyingi bosqichga ko‘tarish yoki mahsulot yoki xizmatni takomillashtirish ustida

ishlash uchun ham juda mos keladi.
6 ta shlyapa usuli juda ko‘rgazmali. Turli xildagi ranglar har xil xususiyatga ega. Vazifalarni taqsimlash uchun kartochkalar, qog‘oz shlyapalar yoki boshqa vositalardan foydalanish kerak. Usul 6 xil roldan iborat bo‘lganligi sababli,

aylanada ham 6 kishi bo‘lishi kerak va hamma “shlyapa” oladi. Keyin topshiriq yoki g‘oya har kimga ko‘rinadigan flipchart yoki doskaga yozib qo‘yiladi.

**Moviy shlyapa – moderator. U har xil ishtirokchilarning hamma gaplarini umumlashtiradi, muhim ma’lumotlarni yozib oladi, shuningdek guruh kotibi bo‘lishi kerak.**

**Sariq shlyapa – optimist. U doimiy ravishda g‘oya uchun “Eng yaxshi ish” haqida o‘ylaydi. Bu barcha sohalarda maqbul narsani ko‘rish haqida. Vaqt jadvallari, byudjet, bozor, mijozlarning talablari va h.k. bo‘lishidan qat’iy nazar, u hamma narsa yaxshi deb o‘ylaydi.**

**Yashil shlyapa – o’ylovchi. U keng ma’noda o‘ylashi mumkin. U boshqalarga o‘xshab chuqurlashish o‘rniga yangi g‘oyalarni olib kirishga va “keng” fikrlashga e’tibor qaratishi kerak. Shunday qilib, u g‘oyaning tafsilotlariga e’tibor berish o‘rniga tashqi g‘oyalarni boshqa g‘oya bilan birlashtiradi.**

**Qizil shlyapa – hissiyotga beriluvchi. U hissiy bo‘lishi mumkin, uning didi, hissiyotlari va hissiyotlari va shaxsiy fikrlari birinchi o‘rinda turadi.**

**Qora shlyapa – tanqidchi. Ular zaif tomonlarni topadi, ayniqsa zaif tomonlarga murojaat qiladi, g‘oyalarni tanqid qiladi va salbiy tomonlarini ham ta’kidlaydi. “Eng yomon vaziyat ssenariysi” bu uning dunyosi va u uchun hamma noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa noto‘g'ri bo‘ladi.**

Oq shlyapa – ob’yektiv. Raqamlar, faktlar, bilimlar, jadvallar, dalillar, statistika va hisob-kitoblar obyektivlarning diqqat markazida bo‘ladi. Ushbu shaxs betaraf bo‘lishi kerak va ushbu shaxsning barcha qarorlari ishonchli bo‘lishi kerak va agar kerak bo‘lsa raqamlar va dalillarni talab qilish kerak.



**Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab o‘qitishga imkon beradigan nimalar tashkil etadi.

2. Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga qanday jarayonlar kiradi?

3. O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi turlarini izohlang.

4. Bu o‘qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg‘ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib boriladi, o‘qitishning qanday texnologiyasi haqida fikr bildirildi?

5. Qaysi gipotezaga ko‘ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o‘rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o‘quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi?

6. A.S.Graniskaya metodikasining o‘ziga xosligi nimada?

7. Yaponiya ta’lim tizimi haqida nimalarni bilib oldingiz?

8. AQSH ta’lim tizimi afzalliklari nimadan iborat?

9. Germaniyada maktab va oliy ta’lim tizimi haqida fikr yuriting.

10. Batov tizimi AQShda ishlab chiqilgan bo`lib, u o‘quv jarayoni nechi qismga bo‘linadi va ular qaysilar?

# GLOSSARIY

| O'zbek tilida | Rus tida | Ingliz tilida |
|---|---|---|
| An'ana - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir. | Традиция – это уникальное социальное явление, правила и нормы, которые нашли свое место в сознании и жизни людей, передаются из поколения в поколение, повторяются, принимаются во всех сферах жизни (в целом или определенной группой ). | Tradition is a unique social phenomenon, rules and regulations that have found their place in the minds and lives of people, are passed down from generation to generation, are repeated, and are accepted in all spheres of life (in general or by a certain group). |
| Baho -ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining miqdoriy baholashda bal yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi | Оценка - условное выражение знаний, умений и навыков учащихся в количественной оценке баллами или числами. | preparation of knowledge, skills and experience by means of number or the size of a quantitative assessment of conditional expression |
| Baholash - o'quvchi yoki tinglovchining egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati | Оценивание - определение уровня знаний, навыков и способностей студента или обучаемого, а также личных качеств. | the student or the student of knowledge, skills and experience to define a level of quality and personal |

| | | |
|---|---|---|
| darajalarini belgilash | | |
| Bilim -o‘quvchi va tinglovchilarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma’lumotlari. O‘quvchi yoki tinglovchilarga taqdim etiladigan nazariy ma’lumot | Знания - информация, полученная студентами и слушателями о достижениях природы, общества, науки и техники. Теоретическая информация, предоставляемая читателю или слушателю | Knowledge - information received by students and listeners about the achievements of nature, society, science and technology. Theoretical information provided to the reader or listener |
| Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab | Урок является основной формой организации обучения. Урок считается основной формой учебного процесса, проводимого с определенной группой учащихся в течение определенного периода времени под непосредственным руководством учителя. Благоприятные условия для учета особенностей каждого учащегося на уроке, | Lesson is the main form of educational organization. The lesson is considered the main form of the educational process conducted with a specific group of students for a specified period of time under the direct guidance of the teacher. Favorable conditions for taking into account the characteristics of each student in the lesson, acquiring the fundamentals of science |

| | | |
|---|---|---|
| olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar | усвоения основ наук, изучаемых всеми учащимися в процессе обучения, воспитания и развития их перцептивных способностей и нравственно-нравственных качеств. | studied by all students during training, educating and developing their perceptive abilities and moral and moral qualities. |
| Darsning uyg‘unligi - dars shaklining uning mazmuniga muvofiqligi, tarkib topgan elementlarning mantiqiy birligi, ziddiyatli hodisalarning dars mazmuni va tuzilishidagi izchilligi. | Гармоничность урока – соответствие формы урока его содержанию, логическое единство элементов содержания, связанность противоречивых явлений в содержании и структуре урока. | Harmoniousness of the lesson -correspondence of the form of the lesson to its content, the logical unity of the elements of content, the connectedness of contradictory phenomena in the content and structure of the lesson. |
| Integratsiya - bu odamning o‘z va guruhning birgalikdagi hayoti va birgalikdagi rivojlaniShi ehtiyojlari va talablariga javob sifatida atrofdagi jamiyatga xos bo‘lgan xatti-harakatlar, | Интеграция – это процесс упорядочения личностью усвоенных ею моделей поведения, отношений, общения, деятельности, присущих окружающему социуму, как ответ на | Integration – it is a process of ordering by a personality the patterns of behavior, relationShips, communication, activity inherent in the surrounding society that |

| | | |
|---|---|---|
| munosabatlar, aloqa va faoliyat modellarini buyurtma qiliSh jarayoni. | необходимости и потребности своего и группового сосуществования и соразвития. | are acquired by her as a response to the needs and needs of her and group coexistence and co-development. |
| Innovatsiya (ing. “innovation” — yangilik kiritish) — tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya — amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy — madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. | Инновация определяется как изменение внутренней структуры системы. Инновация - важная часть практики и теории, система действий социальных субъектов, направленная на улучшение качеств социокультурного объекта. | innovation is defined as changing the internal structure of the system. Innovation is an important part of practice and theory, a system of action of social subjects aimed at improving the qualities of a social and cultural object. |
| Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2)adabiyotda — | Концепция- (лат. conceptio — комплекс, система) — 1) взгляды, система принципов, относящихся к области, определенный способ осмысления, осмысления и интерпретации фактов и событий, основная | Concept (lat. conceptio — complex, system) — 1) views, a system of principles related to a field, a certain way of understanding, understanding and interpreting facts and events, a basic point of view; 2) in literature - |

| | | |
|---|---|---|
| biror asarning asosiy g‘oyasi. | точка зрения; 2) в литературе - основная мысль произведения. | the main idea of a work. |
| Marosim - an’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik, tantanavor vaziyatda o‘tadigan o‘zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. | Ритуал - часть традиции и обычая, формальное и духовное торжество, направленное на празднование важных событий в жизни человека, жизненное событие со своими общепринятыми символическими действиями, происходящее в торжественной обстановке. | A ritual is a part of tradition and custom, a formal and spiritual celebration aimed at celebrating important events in a person's life, a life event with its own generally accepted symbolic actions that take place in a solemn situation. |
| Mashq - bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish | Упражнения – это рациональная, целенаправленная и комплексная организация деятельности детей, побуждающая их к соблюдению нравственных норм и правил поведения. | Exercise – balanced and comprehensive organization of children’s activities, their adaptation to compliance with ethical standards and conduct rules. |

| | | |
|---|---|---|
| Ma'lumot - ta'lim - tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo‘ladi. | Образование – это совокупность приобретенных и систематизированных знаний, приобретенных навыков и умений, сформированных мировоззрений в результате образования. В педагогическом процессе происходит формирование, воспитание и образование человека как личности. | Education is a set of acquired and systematized knowledge, acquired skills and abilities, and formed worldviews as a result of education. The formation, upbringing and education of a person as a person takes place in the pedagogical process. |
| Natijalar (ta'lim mahsulotlari) – ta'lim jarayonining yakuniy oqibatlari, ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish darajasi. | Результаты (образовательные продукты) – это конечные результаты образовательного процесса, уровень достижения намеченных целей. | Results (educational products) are the final results of the educational process, the level of achievement of the intended goals. |

| | | |
|---|---|---|
| Odat (“urf-odat”) - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. | Привычка («обычай») – укоренившееся в жизни людей поведение, повторяющееся в течение определенного периода времени, правила поведения, принятые большинством. | Habit ("custom") is a behavior that is ingrained in people's lives, repeated for a certain period of time, rules of behavior accepted by the majority. |
| Oliy o‘quv yurtining davlat ta'lim talablari - oliy pedagogik ta'limning tarkibi va mazmunini belgilaydigan asosiy me'yoriy hujjat. | Государственный образовательные требования высшего учебного заведения – базовый нормативный документ, определяющий структуру и содержание высшего педагогического образования. | The state educational standard of higher professional education - basic regulatory document that defines the structure and content of higher pedagogical education |
| Pedagogik san'at - o‘qituvchi tomonidan psixologik-pedagogik bilimlar, ko‘nikma va mahoratlar to‘plamini mukammal egallashi hamda kasbiy ishtiyoq, rivojlangan pedagogik | Искусство педагогическое – совершенное владение педагогом совокупностью психолого-педагогических знаний, умений и | Pedagogical art - perfect mastery of the teacher by a combination of psychological and pedagogical knowledge, abilities and skills, as well as professional |

| | | |
|---|---|---|
| fikrlash va sezgi, hayotga axloqiy va estetik munosabat, chuqur ishonch va kuchli iroda. | навыков, а также профессиональная увлеченность, развитое педагогическое мышление и интуиция, нравственно-эстетическое отношение к жизни, глубокая убежденность и твердая воля. | dedication, developed pedagogical thinking and intuition, moral and aesthetic attitude to life, deep conviction and strong will. |
| Pedagogik faoliyat - pedagogik jarayonda optimal sharoitlarni yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat o‘quvchi shaxsini tarbiyalash, rivojlantirish va o‘zini rivojlantirish va erkin va ijodiy o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini tanlash uchun. | Деятельность педагогическая – профессиональная деятельность, направленная на создание в педагогическом процессе оптимальных условий для воспитания, развития и саморазвития личности воспитанника и выбора возможностей свободного и творческого самовыражения. | Pedagogical activity - professional activity aimed at creating optimal conditions in the pedagogical process for the upbringing, development and self-development of the personality of the pupil and the choice of opportunities for free and creative self-expression. |

| | | |
|---|---|---|
| Pedagogik mahorat har bir o‘qituvchining zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, odatdan tashqari kuch - g‘ayratni, qat'iyatlilikni, tirishqoqlikni, vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql - idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi. | Педагогическое мастерство связано с формированием необходимых общепедагогических навыков каждого педагога, необычайной силы - энтузиазма, решительности, трудолюбия, умения войти в ситуацию, новый коллектив, искренности, правильности. Требуется честность и порядочность, острый ум, и возможность протестировать один инструмент против другого. | Pedagogical skill is related to the formation of the necessary general pedagogical skills of every teacher, extraordinary strength - enthusiasm, determination, diligence, the ability to enter a situation, a new team, sincerity, the right It requires honesty and integrity, sharp intelligence, and the ability to test one tool against another. |
| Qadriyatlar - inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan yerkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, | Ценности воплощают в себе такие качества, как свобода, социальная справедливость, равенство, правда, просвещенность, красота, добро, честность, верность | Values embody such qualities as freedom, social justice, equality, truth, enlightenment, beauty, goodness, honesty, loyalty to duty, which serve the interests of the nation, which are important for |

| | | |
|---|---|---|
| burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. | долгу, которые служат интересам нации, которые важны для человека. | a person. |
| Ta'limni tashkil etishning individual shakli - o‘qituvchi har bir talaba bilan alohida ish olib boradigan mashg‘ulotni tashkil etish shakli. | Индивидуальная форма организации обучения – форма организации обучения, при которой учитель работает индивидуально с каждым учеником. | Individual form of training organization -a form of educational organization in which the teacher works individually with each student. |
| Ta'lim pedagogik jarayon sifatida - o‘qituvchi va o‘qimishli shaxsning o‘zaro ta'siri jarayoni, bu davrda shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi amalga oshirish uchun sharoitlar yaratiladi. | Воспитание как педагогический процесс – процесс взаимодействия воспитателя и воспитуемого, в ходе которого создаются условия для саморазвития и самоактуализации личности. | Education as a pedagogical process - the process of interaction between the educator and the educated, during which the conditions for self-development and self-actualization of the person are created. |
| Ta'lim ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida - yosh avlodni jamiyat tomonidan to‘plangan hayotiy tajribani yetkazishni | Воспитание как социокультурный процесс –система воздействий общественных институтов, | Education as a sociocultural process - the system of impacts of public institutions providing transmission to the younger |

| | | |
|---|---|---|
| ta'minlaydigan davlat muassasalarining ta'sir tizimi | обеспечивающих передачу молодому поколению накопленного обществом жизненного опыта. | generation the life experience accumulated by society. |
| Tarbiya – uzoq muddatli, ko‘p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi qo‘shaloq jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchida aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida muayyan sifatlar, ko‘nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi | Воспитание представляет собой длительный, многогранный, двойственный процесс между воспитателем и учащимся, при этом у учащегося формируются и развиваются специфические качества и умения, исходя из конкретной цели и социально-исторического опыта. | Education is a long-term, multi-faceted, dual process between the educator and the student, and specific qualities and skills are formed and developed in the student based on a specific goal and socio-historical experience. |
| Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish | Теория воспитания является одной из важных составляющих педагогики и изучает содержание образовательного процесса, виды воспитания, форму, | The theory of education is one of the important components of pedagogy and studies the content of the educational process, types of education, form, method, means |

| | | |
|---|---|---|
| masalalarini o‘rganadi. | метод, средства и методы, вопросы его организации. | and methods, and issues of its organization. |
| Ta’lim sifati -avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o‘quvchilarga tashkiliypedagogik ta’sir ko‘rsatish: o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqtiga bog‘liq; | Качество образования - продуктивность предыдущего этапа и результаты, достигнутые на текущем этапе; характер и размер изучаемого материала; организационно-педагогическое воздействие на обучающихся: зависит от учебных способностей студентов и учебного времени; | Quality of education - the productivity of the previous stage and the results achieved at the current stage; nature and size of the studied material; organizational-pedagogical impact on students: depends on students' learning abilities and educational time; |
| Ta’limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o‘zaro aloqasi va birligini ta’minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va | Гуманизация образования - обновление его содержания, принципов, форм и методов, обеспечивающее их взаимодействие и единство, направляющее | Humanization of education - updating its content, principles, forms and methods, ensuring their interaction and unity, directing the formation and development of a person in all aspects. |

| | | |
|---|---|---|
| rivojlantirishga yo‘naltirish. | формирование и развитие человека во всех аспектах. | |
| O‘qituvchining obrazi (inglizcha  image - obraz) -o‘qituvchi qiyofasini o‘quvchilar, hamkasblar, ijtimoiy ongida idrok etishni hissiy jihatdan rangli stereotipi. Atrof-muhit, ommaviy ongda. I.ni shakllantiriShda. haqiqiy fazilatlar boshqalar tomonidan unga berilgan fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. | Имидж учителя (от англ. image – образ) – эмоционально окрашенный стереотип восприятия образа учителя в сознании воспитанников, коллег, соц. окружения, в массовом сознании. При формировании И. у. реальные качества тесно переплетаются с теми, которые приписываются ему окружающими. | Image of the teacher emotionally colored stereotype of perception of the image of the teacher in the minds of pupils, colleagues, social. environment, in the mass consciousness. When forming I. at. real qualities are closely intertwined with those attributed to those around him. |
| O‘qituvchining mahorati pedagogik jarayon sharoitida organik ravishda yashash qobiliyati,  ichki inoyat, obrazli uyushmalar orqali nostandart echimlarga intilish, o‘ziga xos vaziyatga mos ravishda o‘z xatti- | Артистизм педагога – способность к органическому существованию в условиях педагогического процесса, внутреннее изящество, стремление к нестандартным решениям через образные ассоциации, | The artistry of the teacher - the ability to organic existence in the conditions of the pedagogical process, inner grace, the desire for innovative solutions through imaginative associations, the ability to consciously build |

| | | |
|---|---|---|
| harakatlarini ongli ravishda qurish qobiliyati. | умение сознательно выстраивать свое поведение в соответствии с конкретной ситуацией. | one’s behavior in accordance with a specific situation. |
| O‘qituvchining insonparvarlik madaniyati - umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlarning, kasbiy va gumanistik yo‘nalishlar va shaxs xususiyatlarining maqbul to‘plami, bilishning universal usullari va pedagogik faoliyatning gumanistik texnologiyalari. | Гуманитарная культура педагога – оптимальная совокупность общечеловеческих идей и ценностей, профессионально-гуманистических ориентаций и качеств личности, универсальных способов познания и гуманистических технологий педагогической деятельности. | The humanitarian culture of the teacher - the optimal combination of universal ideas and values, professionally-humanistic orientations and personality traits, universal methods of cognition and humanistic technologies of pedagogical activity. |

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. –B.39.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”. 2017 y. 7 fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

7. Sh.M. Mirziyoyev.Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent:O‘zbekiston,2017.-22b

8. I. A. Karimov A."Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent Ma’naviyat, 2008-yil.

9. Istamova N. va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. ToShkent-2020-yil.

10. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.

11.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.

12. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.

13. Maxbuba Karimova. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, Maxsus son

14. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 2021-yil.

15. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T:.O‘qituvchi 2010-yil.

16. R.A. Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.

17. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil**.**

18. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T:.O‘qituvchi 2010-yil.

19. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y.

20. F.A. Norboyeva, S.A. Qurbonova Humanite Congress- International Multidisciplinary Virtual Conference Hosted From Lyon, France https://conferencepublication.com December 5th 2021 83 Oilada va maktabda bola shaxsini shakllantirish.

21. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “Tib-kitob” nashriyoti Toshkent -2010.

22. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti. 2021-yil.

23. D.F. Nasimova, S.F. Tilavov Ученый XXI века • 2022 • № 5-2 (86)

24. Kaykovus “Qobusnoma”.- T., “O‘qituvchi”. 1986

25. A.Avloniy Turkiy Guliston yohud axloq.-T., “O‘qituvchi”. 1992

26. S.I. Mirhayitova Pedagogik texnologiya o‘quv qo‘llanma. Toshkent- 2020

27. G‘oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi.- Toshkent: O‘qituvchi, 2009. Uchinchi nashr.-288 bet

www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. 356

www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

www. ziyonet.uz

www.tdpu.uz

www. Ziyonet. uz

www. edu.uz

tdpu.Intranet.Ped

www.pedagog.uz:

https://hikmatlar.uz/quote/775

**MUNDARIJA**

**I BOB. TARBIYA IJTIMOIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA …………..8**

1.1. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fani haqida tushuncha…………..……..... 9

1.2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish…..........15

1.3. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari ……………………….………… 22

**II BOB. MILLIY TARBIYA KONSEPSIYASI ……………….…………28**

2.1. Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati ………………………………….. 29

2.2. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. …………...36

2.3. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari……………………………………….. 43

**III BOB. TARBIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI……………………………………………** 48

3.1. Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati. …………………..……49

3.2. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchining vazifalari…….. 56

3.3. Maktabdan tashqari faoliyat ish usullari……………………………………. 58

**IV BOB. MAVZU: MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN’ANALAR TARBIYA ASOSI …………………………………………………………....72**

4.1. Urf-odat,qadriyat va an’analar haqida tushuncha. ……………………..……73

4.2. Qadriyat turlari. ………………………………………………………...……79

4.3. Shaxsning ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati……………..… 83

**V BOB. TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHINING O‘Z USTIDA ISHLASH IMKONIYATINI TASHKIL ETISH …………………………...**90

5.1. O‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning psixologik va pedagogik asoslari. ……………………………………………………………………..……91

5.2. O‘qituvchi irodasi hamda his-tuyg‘usini tarbiyalsh va ularni mustaqil tarbiyalash usullari. ……………………………………………………………96

5.3. O‘z-o‘zini tarbiyalash metod va vositalari. ………………………...……106

**VI BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI INTEGRATSIYASI ……………………………….**114

**6.1. Mahalla tarixi. …………………………………………...………...115**

**6.2. O‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatishda maktab, oila va mahalla hamkorligi………………………………………………………….….. 117**

**6.3. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o‘rni……………………………………………………. 122**

**VII BOB. TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR ………………………**133

7.1. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalar. ……….134

7.2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya. …………………….……137

7.3. Ilg‘or xorijiy ta'lim tizimi……………………………………….……………143

## СОДЕРЖАНИЕ

**ГЛАВА I. ОБРАЗОВАНИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ……………………………………………………8**

1.1. О предмете «Воспитание в начальных классах». …………………………9

1.2. Предоставление информации о целях и задачах воспитательной работы……………………………………………………………..………..15

1.3. Методические основы воспитательной работы……………….………22

**ГЛАВА II. НАЦИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ….……28**

2.1. Сущность концепции национального образования……………….…..29

2.2. Формирование личностного мировоззрения на основе национальных ценностей……………………………………………………………………….. 36

2.3. Критерии всеобщего образования………………………………………. .43

**ГЛАВА III. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ ………………………………………………………….. 48**

3.1. Воспитательное значение внеурочной деятельности……………………49

3.2. Обязанности организатора внеурочной образовательной деятельности..56

3.3. Методы внеклассной работы…………………………………………….58

**ГЛАВА IV. ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ ВОСПИТАНИЯ ……………………………………………72**

4.1. Понятие об обычаях, ценности и традициях узбекского народа………73

4.2. Виды обычаев, ценностей и традиций……………………………………79

4.3. Значение традиций в духовном росте человека…………………………83

**ГЛАВА V. ОРГАНИЗАЦИЯ ВОЗМОЖНОСТИ СТУДЕНТА РАБОТЫ НАД СОБОЙ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УРОКАХ ........................90**

5.1. Психолого-педагогические основы самостоятельной работы и самовоспитания. ……………………………………………………………..91

5.2. Способы воспитания воли и эмоций учителя и воспитания их самостоятельно……………………………………………………………96

5.3. Методы и средства самообразования……..……………………………..106

**ГЛАВА VI. ИНТЕГРАЦИЯ СЕМЬИ, МАХАЛЛИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ………………………………………………………114**

6.1. Истоки появления махалли ………………………………………….115

6.2. Сотрудничество школы, семьи и махалли в обучении учащихся трудолюбию………………………………………………………………117

6.3. Роль семьи, школы, махаллинского сотрудничества в формировании духовности личности……………………………………………………..122

**ГЛАВА VII. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА…………..133**

7.1. Зарубежный опыт повышения эффективности образования и воспитания………………………………………………………………134

7.2. Образование в развитых зарубежных странах……………………….. 137

7.3. Передовая зарубежная система воспитания……………………………143

## TABLE OF CONTENTS

**CHAPTER I. Education as a social-historical necessity………………………..8**

1.1. Understanding of the science of "Education in primary education"……..……9

1.2. Providing information about the goals and tasks of educational work……....15

1.3. Methodological foundations of educational work……………………………22

**CHAPTER II. National education concept……………………….………..28**

2.1. The essence of the concept of national education……………………………29

2.2. Formation of personal worldview based on national values…………..…….36

2.3. Criteria of universal education…………………………………….………43

**CHAPTER III. The methodology of organizing outside the classroom work in educational lessons…………………………………………………………………48**

3.1. Educational importance of extracurricular activities……………….……..49

3.2. Duties of the organizer of extracurricular educational activities…………….56

3.3. Extracurricular activities work methods…………………………….………..58

**CHAPTER IV. Subject: basis of national customs, values and traditions of education……………………………………………………………………....72**

4.1. Understanding of customs, values and traditions…………………..…..73

4.2. Value types……………………………………………………...………79

4.3. The importance of values in the spiritual growth of a person…………..…83

**CHAPTER V. Organizing the student's opportunity to work on himself in education lessons……………………………………………………………...90**

5.1. Psychological and pedagogical foundations of self-work and self-education.91

5.2. Ways to educate the teacher's will and feelings and to educate them independently……………………………………………………………………96

5.3. Methods and means of self-education……………………………..………106

**CHAPTER VI. Integration of the family, neighborhood and educational institution in the process of education…………..……………………………114**

6.1. Neighborhood history……………………………………………..…….115

6.2. School, family and neighborhood cooperation in teaching students to be hardworking……………………………………………………………………..117

6.3. The role of family, school, neighborhood cooperation in the formation of individual spirituality………………………………………………………………122

**CHAPTER VII. Advanced foreign experiences in increasing the effectiveness of the educational process……………………………………….…………..133**

7.1. Advanced foreign experiences in improving the effectiveness of education.134

7.2. Education in developed foreign countries……………………………………..137

7.3. Advanced foreign education system……………………………..……………143

# QAYDLAR UCHUN

**SHOKIROVA MADINABONU SHOMUROD QIZI**

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI

**O‘QUV QO‘LLANMA**

*Muharrir:* *H.Qahhorov*
*Texnik muharrir:* *M.Ismoilov*
*Musahhih:* *S.Abdurahmonova*
*Sahifalovchi:* *X.Axrorov*

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Orginal maketidan bosishga ruxsat etildi: 04.04.2024. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 10,75. Adadi 100. Buyurtma № 299

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy